

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`zbek tili va adabiyoti kafedrasи**

**5120100-filologiya o`zbek tili yo`nalishi 401-guruh talabasi**

**ABOBAKIROVA NILUFAR ABDUHAKIM qizining**

**bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

**“MIRKARIM OSIM – TARIXIY ASARLAR USTASI”**

**MAVZUSIDA BITIRUV-MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Mo'minjon SULAYMONOV

NamDU O`zbek tili va adabiyoti kafedrasи  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Namangan – 2016**

Reja:

**Kirish**

Mavzuning dolzarbligi.

Mavzunung o'rganilish darajasi.

Mavzuning o'rganish manbalari

Bitiruv-malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi hamda vazifalari.

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi.

I-Bob. Mirkarim Osimning adabiy merosi

1. Respublikamiz prezidenti I. Karimov adabiyot haqida

1.2. Mirkarim Osim hayoti va ijodiy faoliyati haqida

1.3. «To`maris» qissasida tarixiy haqiqatning badiiy talqini

II-bob. “O`tror” qissasida tarixiy shaxs va badiiy xarakter masalasi

2.1. Qissada Chingizzon obrazi

2. 2. Minglioy va boshqa ayollar obrazi

2.3. Sulton Horazmshoh va boshqa timsollar

III-Bob. «Zulmat ichra nur» qissasida tariziy shaxslar obrazi

3.1. Qissada tarix va talqin.

3.2. Alisher Navoiy obrazi.

3.3. Husayn Boyqaro obrazi va boshqa obrazlar

Umumiyl xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Tarix hukmi shunga guvohki, xalqchil, insonparvarlik va ona yurt tuyg`usini aks ettirgan asarlarga yangi avlodlarga ma`naviyat va ma`rifat nurlarini taratib keladi. Tarixiy asarlarda aks ettirilgan hayotiy haqiqat orqali o`tmishga nazar tashlanadi. Bunday asarlarda ming yillar oldin yashab o`tgan, vatanning har siqim tuprog`ini aziz deb bilgan ota-bobolarimiz, momolarimiz siymosi ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi.

Atoqli adib Mirkarim Osimning ham tarixiy mavzudagi asarlarida vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik kabi chin insoniy fazilatlar mujassamlashgan. Mirkarim Osimni xalqmizning bir necha avlodi yaxshi taniydi. Uning asarlaridan eng saralari qariyib yarim asrdan buyon o`rta maktab darsliklaridan o`rin olib, yangi avlodlar bilan ona tariximiz, boy o`tmish madaniyatimiz, nurga ziyoga intilgan vatanparvar ajdodlarimiz o`rtasidagi mustahkam ko`prik bo`lib, tarix bilan hozirgi zamonamizni bog`lab turibdi. Bu asarlar xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an`analari, urf-odatlari, ilg`or udumlarini o`zida ifodalab, bugun mustaqilligimizni mustahkamlashga yana bir asos bo`lib kelmoqda.

Ayniqsa, adib qissalari yoshlarimizda vatanga muhabbat, ilm-fan, madaniyat tarixiga hurmat, dunyoda mustahkam tinchlik uchun kurash, erkin yashash va insonparvarlik hissini tarbiyalab, kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Shuning uchun ham adib qalamga olgan ushbu tarixiy mavzular adabiyot tarixini ham, hozirgi adabiy jarayonning ham dolzarb mavzularidandir.

Mirkarim Osim asosan tarixiy mavzuda asarlar yozgan adib sifatida mashhur. Uning asarlarida tarixiy haqiqatni badiiy ifodasi hali atroflicha o`rganilgan emas. Shu sababli **mavzuimiz dolzarblik kasb etadi**.

## **Mavzuning o`rganilishi**

XX asrning 2-yarmi o`zbek adabiyotida M.Osimning o`ziga xos o`rni bor. Adibning ijodi bo`yicha M.Sattorov, N.Mallayev, S.Mirvaliyev, M.Mahmudov, S.Tanchenko, M.Sa'dinov, A.Uzoqov hamda N.Karimovlar singari qator adabiyotshunoslarimiz ilmiy maqolalar chop etishgan.

## **Tadqiqotning maqsad va vazifalari**

Ma'lumki, yurtimiz mustaqil bo`lgandan keyin o`tmishga, tariximizga bo`lgan munosabat o`zgardi. M.Osim asarlari darsliklarga kiritilgan bo`lsa ham, lekin uning ijodi bo`yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Adibning obraz yaratish mahoratini aniqlash bosh **maqsadimiz** hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish lozim deb topdik:

- Mirkarim Osim ijodida tarixiy mavzuning yoritilishi;
- «To`maris» qissasida tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini;
- «Zulmat ichra nur» qissasida tarixiy shaxslar obraziga xos xususiyatlarni aniqlash;
- Navoiy timsoliga xos xususiyatlar;
- Husayn Boyqaro timsoliga ayrim chizgilar;
- «O`tror» qissasida tarixiy shaxs va badiiy xarakter;
- qissada tarixiy muhit va uning tasviri masalasi;
- qissada tarixiy manbalar va timsollar talqini; . . .
- G`oyirxon (Inolchiq) timsoliga xos xususiyatlar;
  - qissada Chingizzon timsoli talqini; :
  - asardagi ayrim epizodik obrazlar tasviri;

M.Osim ijodida tarixiy mavzu talqini masalasini ilmiy asosda o`rganish.

## **Tadqiqot manbalari**

Yozuvchi Mirkarim Osimning bir qator tarixiy qissalarini o`zida jamlangan «Jayhun ustida bulutlar» kitobi, «Karvon yo`llarida» nomli turkum qissalar kitobi, «Shiroq» nomli risolasi, shuningdek, adib haqidagi tadqiqotlar hamda maqolalar mazkur ilmiy ishimizning asosiy manbalari

hisoblanadi.

### **Ishning amaliy ahamiyati**

Mazkur Bitiruv-malakaviy ish xulosa va natijalaridan quyidagi masalalarni hal etishda foydalanish mumkin.

O`rta umumta'lim mакtablarida M.Osim ijodi bo`yicha mashg`ulotlarni tashkil etishda foydalanis mumkin.

### **Tadqiqotning tuzilishi**

Ushbu Bitiruv-malakaviy ish kirish, xulosa, foydanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashqari uchta mustaqil bobdan tashkil topgan. Har bir bob o`z navbatida ichki qismlarga ham bo`lingan.

## **I bob.Mirkarim Osimining adabiiy merosi**

### **1. 1. Respublikamiz prezidenti I. Karimov adabiyot haqida.**

Ma'lumki, Mustaqillik yillarda bizning yurtimizda adabiyot masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning asosiy sababi milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasiga alohida e'tibor qaratilganligi hamda adabiyot ana shu sohalarning ajralmas bir qismi ekanligi hisoblanadi. Darhaqiqat, Yurtboshimiz tashabbusi bilan hali yurtimiz istiqlolga erishmasdan burun 1991-yil "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan edi. 1991-yil 31-avgustda Mustaqillik e'lon qilingach, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlardan biri Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutiga Alisher Navoiy nomini berish haqidagi Farmon ham tarixiy hujjat sifatida qimmatlidir.

I.A. Karimovning "Alpomish" dostoniniang 1000 yillik hamda "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yillik yubileyida so'zlagan ma'ruzalari ham tarixiy qimmatga ega. Keyingi yillarda adabiyotimizning mashhur vakillariga Toshkent shahrida qo'yilgan haykallar: G'afur G'ulom, Zulfiya, Oybek, Said Ahmad va Saida Zununova haykallari. Alisher Navoiyga Moskva, Boku, Tokio, Kaliningrad shaharlarida o'rnatilgan haykallar haqiqatan ham adabiyotimizga, yurtimizga diqqat – e'tibor juda ulug'ligini ifodalaydigan faktor hisoblanadi. Muhtaram yurtboshimiz "Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga kelajakka e'tibor" nomli risolasida ham adabiyotimizning bugungi kundagi taraqqiyoti hamda kelajakdagi avvoli haqida bildirgan fikr – mulohazalari ham diqqatga molikdir. Zero, yurtboshimiz adabiyotimiz rivoji uchun doimo rahnamolik ko'rsatib keldilar va ko'rsatmoqdalar.

Adabiyot ahliga hurmat ehtirom ko'rsatish asli bizning yurtimizda azal – azaldan davlat siyosati darajasida bo'lib kelgan. Bu holat, ayniqsa, temuriylar davrida an'anaviy tus oldiki, bunga hozir dunyo ahli tan bermoqda.

O'zbekiston milliy mustaqilikka erishishi o'zbek xalqining mamlakat taraqqiyotidagi maqomini tubdan o'zgartirdi.

O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan turli illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish ko'hna qadriyatlarimiz din-u diyonatimizni tiklash,

hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z ildimizga qo'ygan oljanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim.

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonzlarni chuqr tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri – bu **Alisher Navoiy** bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida faxrlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi millatimizning g'ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qliki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. **“Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak desak, shoirlarning sultonidir.”<sup>1</sup>**

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham

---

<sup>1</sup> Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" –Toshkent "Ma'naviyat"2008–yil 47–bet

bizning ong-u shuurumiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosidan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamic.

Prezidentimizning yuqoridagi fikrlaridan Islom Karimovning xalq ma'naviyatini yuksaltirish, bu yo'lida avvalo, fan, san'at va adabiyotga chuqr e'tibor bilan qarash va uning taraqqiy topishiga juda katta e'tibor qaratayotganini anglaymiz. Bu e'tibor yaqinda boshlangani yo'q, balki yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk davrdayoq prezidentimizning adabiyotga bo'lgan yuksak hurmati va e'tiborini ko'ramiz.

Darhaqiqat, 1991-yil Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 19-sentabridagi qaroriga muvofiq o'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk olim, mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining adabiyot ilmogohiga Alisher Navoiy nomi berildi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Milliy bog'ida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida nutq so'zladi: "Hurmatli do'stlar! Avvalambor, ulug' bobomiz, milliy g'ururimiz, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy kunlarida qatnashib, shodligimizni baham ko'rayotganingiz uchun samimi minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Mana

salkam bir yildirki, O'zbekistonimizda, O'rta Osiyoda, barcha Sharq xalqlari tomonidan nishonlanayotgan Alisher Navoiyning, umr va ijod to'ylari—qutlug' ma'raka davom etmoqda. Bu to'y millat bayramidir. Qadriyatimizni yana bir bor ulug'laydigan bayramdir. Bu to'y xalqimiz O'zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi. Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan 1991-yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi.

O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta, porloq bo'ladi.

Ishonamizki, O'zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo'stligi o'rtasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Ana o'shanda ham Alisher Navoiyning qutlug' nomi bizga madadkor bo'ladi. Bu ko'shk, bu haykal, bu so'lim bog' hammamizga muborak bo'lsin, aziz do'star !

O'zbek xalqimizning ulug' siymosi Alisher Navoiy nomidek abadulabad saqlansin, obod bo'lsin.<sup>2</sup>

Demak, buyuk ajdodlarimizga, ma'naviy merosimizga, milliy adabiyotimizga bo'lgan e'tibor kecha yo bugun, boshlangani yo'q, balki avval-boshdan adabiyotimizga yuksak hurmat va e'tibor bilan qaralgan. Shuning uchun boy ma'naviy merosimiz boshqa xalqlar tomonidan ham tan olinmoqda va hurmat ko'rsatilmoqda. Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarmizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz. Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo'lган ana shunday ilmiy, ma'naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, "Oqqan daryo oqaveradi", degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z

---

<sup>2</sup> Karimov.I.A "O'zbekiston mustaqilinka erishish ostonasida"—Toshekent "O'zbekiston" 2011—yil 401–403–bet

shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi. Ana shunday ulug' ajdodlarimizning ilmiy ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorimizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullayev va Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiq va Sobir Yunusov, Yaxyo G'ulomov va Bo'riboy Ahmedov, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo'jayev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarining yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Biz shoir deganda, avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat noyob iste'dodi, ayni paytda butun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Hech shubhasiz, ziylolarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdag'i o'mi va ta'siri beqiyosdir.

Eng muhimi, yozuvchilarimiz o'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, o'z ijodiga, qalb amri bilan tanlagan kasbiga sodiq qolib, milliy o'zligimizni anglash, xalqimiz ong-u tafakkurini o'zgartirish, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida xizmat qilib kelayotganini ta'kidlash har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni ta'sirchan obrazlar, yorqin badiiy

bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar deb bilamiz.

Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ya'ni, yozuvchi "Ey odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?" degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat'iy qilib qo'ya olsagina, o'ylaymanki, o'zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo'ladi. Adiblarimiz aynan mana shunday masalalar ustida bugungi kunda ularning so'zi xalq qalbida qanday aks-sado berayotgani haqida yana bir bor o'ylab ko'rishlarini istardim.

To'g'risini aytadigan bo'lsak, yoshlar bugun axborot va ma'lumotlarni asosan Internet orqali olyapti, dunyoni televideniya, kompyuter orqali taniyapti. Ota-onasi, o'qituvchilari ming targ'ib va tashviq qilmasin, bugungi yoshlar "O'tkan kunlar", "Urush va tinchlik" kabi mumtoz romanlarni yoppasiga o'qiapti, deb ayta olamizmi? Modomiki, shunday ekan, endi odamlar, yoshlar kitob o'qimay qo'ysi, deb faqat nolib o'tirmasdan, o'zbek tilidagi Internet adabiyotini shakllantirish, shoir va yozuvchilarimizning o'z veb-saytlariga ega bo'lishiga erishish nafaqat, adabiy jarayonga, kerak bo'lsa, butun ma'naviy-ma'rifiy hayotimizga kuchli ta'sir o'tkazishini yaxshi tushunamiz. **Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergen iste'doddir. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir.** Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdard-u hamnafas bo'lib yashash, haqiqat vaadolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Karimov I.A "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor"- Toshkent "O'zbekiston"2009-yil 17-18-bet

Shu o'rinda yana bir fikrga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Chinakam ijod va iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni, yozuvchining yuragidan, qalbidan chiqqan haqqoniy va ta'sirchan fikrlarni keng ommaga yetkazish uchun barcha mavjud vositalardan unumli foydalanish zarur. Deylik, eski davrda bo'lganidek, yozuvchi nashriyot uchun xizmat qilishiga chek qo'yish lozim, deydi I.A Karimov o'zining adabiyot haqidagi fikrlarida.

Kerak bo'lsa, nashriyotlar ham, teatrlar ham, radio-televedeniya, kinostudiylar ham yozuvchi va shoirlarning ijodini jamoatchilikka, o'quvchi va tomoshabinlarga yetkazish, ular bilan hamkorlik qilishdan, ularga yanada kengroq minbar berishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Chunki bu ijod turlarining ham tag-zaminida birinchi navbatda adabiyot, so'z san'ati turishi hech kimga sir emas.

Ijodiy jarayonning, adabiyotning asosiy bunyodkori – bu yozuvchi va shoirlardir. Lekin bu ishni faqat ularning yelkasiga tashlab qo'ymasdan, jamoatchilik, butun jamiyatimiz unga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Bugungi kunda iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini butun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda.

"Iste'dod, iste'dod va iste'dod sohiblarini topish, tarbiyalash va ularning mehnatini munosib qadrlash eng asosiy vazifamizga aylanishi zarur. Yosh adib va shoirlar, adabiy tanqidchilarning har biri o'z asarlari bilan adabiy jamoatchilik nazaridan, ijodiy tanlovlar jiddiy taqrizlardan o'tib, tegishli e'tirofga sazovor bo'lib, shundan keyingina adabiyot maydoniga kirish lozim. Buning uchun nafaqat markazda, balki joylarda ham faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy to'garak va seminarlarning ish samarasini oshirish, bahs-munozaralar, mushoiralar, fikr almashuvlar, shu bilan birga, ustoz yozuvchi va shoirlarning mahorat maktabini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar olib borishni kuchaytirish darkor. Yosh ijodkorlar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlarda qatnashayotgan qalamkashlar orasidan eng yaxshi iste'dod egalarini tanlab olishda Yozuvchilar uyushmasi asosiy tashabbuskor bo'lishi, bu ishlarni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati bilan birgalikda amalga oshirishi zarur. Yosh iste'dodlarni aynan ana shunday

talablar asosida kamol toptirish ularning adabiyot olamida o'z munosib o'rnini egallashini ta'minlash uchun Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Yosh ijodkorlar bilan ishslash kengashining faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish va yangicha asosda qayta tashkil etish lozim.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk ijodkorlarni, buyuk shoirlarni, buyuk yozuvchilarni tarbiyalashimiz lozim. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi.

Mana shunday ulkan va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda jonkuyar va fidoyi adiblarimiz o'zbek adabiyotning muqaddas an'analariga sadoqatli bo'lib, ularni munosib davom ettirgan holda ijod qiladilar va yangi-yangi go'zal asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar, deb ishonaman.”<sup>4</sup>

Demak, istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirayotgan ekan, prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyat masalasiga eng muhim va ustuvor yo'nalish sifatida katta ahamiyat berib kelinayotgani bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning adabiyotga e'tibor ma'naviyatga, keljakka e'tibor ekanini alohida ta'kidlab, adabiyotimizning bugungi kuni va ertangi istiqboli xususida qayg'urib milliy adabiyotimizni yuksak darajaga ko'tarayotgani, bu borada amalga oshirish to'g'risidagi turli qarorlari bizni quvontiradi.

Islom Karimov tomonidan yosh iste'doddarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularni har tomonlama rag'batlantirish, joylarda turli xil tanlovlardan, adabiy kechalar va tadbirlar o'tkazish, Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Yosh ijodkorlar bilan ishslash kengashining faoliyatini yangicha asosda qayta tashkil etilishi va iste'dodlarning ilk kitoblari shu tashkilot fondi tomonidan chop etib berilishi yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tiborning naqadar kuchli ekanini yana bir bor isbotlaydi.

---

<sup>4</sup> Karimov I.A "Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, keljakka e'tibor". -Toshkent "O'zbekiston" 2009-yil 29-30 -bet  
13

## **1.2.Mirkarim Osim hayoti va ijodiy faoliyati haqida.**

Mirkarim Osim 1907-yil Toshkent shahrida, ziyoli oilasida dunyoga kelgan va 1984-yilda vafot etgan. 1917-1920-yillar o`z tengdoshlari Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor singari eski mакtabda savodini chiqargan, so`ngra «Shams ul-urfon» nomli boshlang`ich mакtabda o`qigan, arab, fors, turkiy tillarni mukammal bilgan. 1921-yili Alisher Navoiy nomidagi respublika pedagogika bilim yurtiga o`qishga kirdi. Bu bilim yurti o`z paytida eng ilg`or ilm o`choqlaridan hisoblanardi. Keyinchalik respublikamizda nom qozongan taniqli olimlar Hamid Sulaymon, Tesha Zohidov, G`ulom Karimovlar singari shu bilim yurtida ta`lim oldi. Mirkarim Osim bu o`quv yurtida do`stlari Oybek, Halim Yoqubovlar bilan birgalikda adabiyot va san`at sirlarini o`rgandi. 1926 -yilda Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o`qib, uni 1930-yilda muvaffaqiyat bilan tugalladi. Ana shu o`qish, izlanish yillarida jahon xalqlari tarixini qunt va sabot bilan o`rgandi.

Domla 1930-yilda o`qituvchilar tayyorlash kursida dars berdi. So`ng 1931-yilda Davlat nashriyotida muharrir, 1932-1949-yillarda esa Toshkent pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutida ilmiy xodim, 1959-72-yillarda G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyotida muharrir bo`lib faoliyat ko`rsatdi.<sup>5</sup>

Adibning «Yangi ariq» nomli ilk qissasi (1925) Qo`qon xonligini ideallashtirgan asar sifatida bosilmay qolgan. Mirkarim Osim 1935-1936-yillarga kelib she`rlar yoza boshlagan. Bo`lajak adib avval tarix fanidan metodik qo`llanmalar, so`ng tarixiy-biografik ocherklar yozib qalamini charxladi. 1940-yildan adibning tarixiy hikoya va qissalari birin-kechin chop etila boshladi. Dastlabki yirik asari «Astrobod» tarixiy qissasi ulug` mutafakkir shoir Alisher Navoiy hayotiga bag`ishlangan. Shunday keyin u Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga doir «Alisher Navoiy va

---

<sup>5</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент: 2003 йил, 6-том, 5-бет.

Darveshali», «Badarg`a», «Navoiyning xislatlari», «Shoirning yoshligi», «Ulug`bek va Navoiy» singari hikoya va kichik qissalar yozdi. Adibning bu qissa va hikoyalarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning badiiy obrazi o`zbek adabiyotida birinchi marta epik tarzda aks ettirilgan edi. Mirkarim Osim shu tariqa adabiyotda o`zining qit'iy ijodiy yo`lini topib oldi. Tarixiy mavzuda asarlar yozish Mirkarim Osimning bir umrlik faoliyati, hayotining mazmuni bo`lib qoldi. Shuningdek, M. Osim O`rta Osiyo xalqlari tarixinining eng qadimgi davridan 1917-yilga qadar kechgan vaqt ichida o`tgan muhim tarixiy voqealarni va shu davrda yashagan o`zbek xalqi ulug` siymolari hayotini aks ettiruvchi o`nlab qissa va hikoyalar muallifi hamdir. Shundan kelib chiqib tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan shartli ravishda uch gypyhga ajratish mumkin:

1. Tariximizning qadimgi davrlari haqidagi hikoyalar:  
Makedoniyalik Iskandar, so`ngra arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning O`rta Osiyoga yurishlari haqidagi asarlar.

2. O`rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi acaplap (mo`g`ullar istilosiga va buyuk fan, madaniyat arboblari haqidagi biografik qissalar.)

3. XVIII asrdan to oktyabr davlat to`ntarish bo`lgan davr tarixiy hayotini badiiy aks ettirgan asarlar turkumi.

Ayni paytda Mirkarim Osim asarlarini uch katta tematik yo`nalish bo`yicha tahlil qilish, baholash mumkin. Bular: 1.Tarixiy-qahramonlik mavzudagi asarlar.

2. Tarixiy-maishiy mavzu.
3. Tarixiy-tarjimai hol asarlari.

Qahramonlik mavzuiga ijodkorning «O`tror», «To`maris», «Shiroq», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen» kabi asarlarini kiritish mumkin.

Maishiy mavzudagilarga «Mohlar oyim» va «Xonposhsha», «Karvon qo`ng`irog`i», «Elchilar» kabi asarlar kiradi.

Tarjimai hol tarixiy asarlarining namunalari qilib tarixchi adibning,

«Zulmat ichra nur» (Navoiy), «Jayhun ustida bulutlar» (Beruniy), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug`ilishi» (Al-Xorazmiy), «Singan setor» (Mashrab) kabi qissalarini ko`rsatish mumkin.

Adib yarim asrlik ijodiy faoliyati davomida ana shu uch davr va uch mavzu yo`nalishi bo`yicha faol mehnat qildi. Bu yo`lda qadim ajdodlarimizning vatanimiz tuprog`iga bostirib kirgan chet ellik bosqinchilarga qarshi olib borgan qahramonona kurashlari, o`tmish ilm-fani, ma`naviyatimiz yulduzlarining jahon madaniyati xazinasiga qo`shtigan beqiyos hissalari, shuningdek, o`zbek xalqining ikki tomonlama zulm-istibdoddan tinkasi qurib,adolatsizlikka qarshi isyonga otlanishi ushbu asarlarning bosh mavzuini belgilab berdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida shunday fikrlarni bayon qilgan edilar: «Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So`nggi vaqtarda jahonda yuz bergen, dunyoning jo`g`rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilangan o`zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to`g`ri baho berish juda muhim».

Darhaqiqat, ko`pchilik ziyolilarni o`ylantirayotgan masalalardan biri shu. Biz yashayotgan davr, bugungi kunga baho berish uchun esa tarixni bilish va to`g`ri talqin etish muhim vazifalardan biridir.

Mirkarim Osimning tarixiy qissa va hikoyalariga xos asosiy fazilatlar ularda tarixiy haqiqat bilan badiiy to`qimaning o`zaro uyg`unligi, tarixiy shaxs obrazining tarixiy davr fonida yaratilganligi, xalqparvarlik va vatanparvarlik g`oyalalarining asarlar osha «qizil ip» o`laroq o`tganligi hamda badiiy til va uslubning soddaligi, shiraliligi, o`zbekonaligidir.

Biz yozuvchining tarixiy asarlari orasidan tarixiy qahramonlik mavzuidagi «To`maris», «O`tror» hamda tarixiy biografik mavzudagi

«Zulmat ichra nur» qissalarini mazkur ilmiy tadqiqotimiz ob'ekti qilib oldik.

Adibning «To`maris» qissasi orqali miloddan avvalgi VI asrga sayohat qilamiz: «Cho`l bahor kelinchagi oyog`i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlangan. To`rg`aylar havoda pirillab ko`klamga madhiya o`qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo`y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o`tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo`yinlarini o`tlarga cho`zadi, qo`ng`izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalatadi. Qizg`ish-qo`ng`ir bir ilon o`t orasidan o`rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o`xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo`rqib ketib oyoqlari bilan qumloq erni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba`zan ovullar yaqinidan ko`kraklari oppoq sayg`oqlar gala-gala bo`lib chopib o`tadi, er gumburlab ketadi»...

Ona tabiatning go`zal, sokin, boy bir parchasini ko`z o`ngimizda namoyon etgan ushbu manzara biz yaxshi bilgan hozirgi dashtu cho`llar tasviri emas, balki bundan minglab yillar oldin yashab, Vatanning har siqim tuprog`i uchun jonini fido qilgan o`tmish ajdodlarimiz-To`maris boshliq massagetlar yurtining jonli kartinasidir.

Tarixnavis adib uzoq o`tmishimizni, hozirgi dorilomon kunlarimizni, ertangi istiqbolimizni ana shunday sof, beg`ubor ko`rishni orzu qilar, zamonlar orasidagi vorisyilik, ilg`or an`analarni hamma davrlarda ham insoniyatning eng asosiy muammosi bo`lgan tinchlikda, tabiat va jamiyat o`rtasidagi uзвиy birlikda, xalqlar o`rtasidagi do`slikda deb bilardi.

Adibning XX asrning 30-yillarda yaratgan XV asr hayotiga bag`ishlangan «Zulmat ichra nur» qissasida buyuk shoir Alisher Navoiyning siymosi chizib beriladi. Ushbu qissada har bir hikoya bir mustaqil asar bo`lib, har birida Navoiy hayotidan xarakterli bir voqeа

tasvirlanadi. Hikoyadan-hikoyaga Alisher Navoiy obrazi ochilib boradi, shakllanib va rivojlanib boradi. Shuningdek, qissada Alisher Navoiy xarakteri yangi qirralari bilan namoyon bo`ladi.

Mutafakkir shoир haqidagi ko`pgina asarlarda Navoiy xalq, jamiyat manfaatlari yo`lida o`z shaxsiy hayotidan kechgan, odil va dono maslahatchi sifatida talqin qilinsa, «Zulmat ichra nur» qissasida u ba`zan shaxsiy hayoti haqida ham o`ylaydigan, ahyon-ahyondaadolatsizlik jon-jonidan o`tib ketganda, qalbida podshoga qarshi isyonkorlik tuyg`ulari jo`sh urib qoladigan, tabiiy insoniy xislatlardan xoli bo`lmagan o`ziga xos xarakterli shaxs sifatida ko`rinadiki, bu o`zbek tarixiy-badiiy nasridagi realizmning yorqin namunasidir.

Yozuvchining «O`tror» qissasi alohida o`rin tutadi. Vatanimizga bostirib kirgan nemis-fashist bosqinchilari bilan hayot-mamot jangi borayotgan II jahon urushi yillarida yaratilgan ushbu asar o`sha vaqtdagi «Qizil O`zbekiston» gazetasida va frontda o`zbek tilida chiqadigan «Vatan uchun» nomidagi ko`p tirajli gazeta sahifalarida bobma-bob, parchama-parcha bosilib bordi.

Asar bosh qahramoni-Inolchiq (G`oyirxon) bosqinchchi mo`g`ul istilochilarining manfur yurishlariga qarshi otlangan qahramon xalq lashkarlarining sardori. Hukmdorlardan ko`ra ko`proq xalq kuchiga ishonadi, xalq orasidan etishgan lashkarboshilarni, mulozim va navkarlarni qadrlaydi. Ularning sadoqatiga ishonadi.

Adib mohir sarkarda va jasur jangchi Inolchiqning ijobiyligi xislatlari bilan bir qatorda uning murakkab inson sifatidagi ojiz tomonlarini ham ta`kidlab o`tadi va asar davomida u yo`l qo`ygan katta-kichik xatolarni ham badiiy dalillab, asoslab boradi.

Asarda o`trorliklarning kichik mag`lubiyatlaridan tortib eng ulkan fojealarigacha badiiy mantiq asosida chizib beriladi. Adib ana shu mag`lubiyatlarning sabablarini badiiy tadqiq etish bilan kitobxon qalbiga vatanparvarlik tuyg`usini singdiradiki, asarning hayotiyligi va

muvaffaqiyatining siri ham shundadir.

«O`tror» qissasi Mirkarim Osim ijodidagina emas, Ulug` Vatan urushi davri o`zbek adabiyotining ham tarixiy qissachilik janridagi muhim yutug`idir.

Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl manbai buzmay, qayta badiiy jonlantirish bilan ajralib turadi. Uning asarlari 70-80-90-yillar tarixchi adiblari uchun asosiy manba vazifasini o`tadi. Bu haqda filologiya fanlari nomzodi Mahmud Sattarov o`zining «Moziy saboqlari» deb nomlangan maqolasida shunday degan edi; «Yozuvchilarimizdan hech kim tarixiy materialni Mirkarim Osimchalik sinchkovlik bilan o`rganib, o`ziniki qilib olib» ishlatmagan, desak mubolag`a bo`lmas. Adib o`tmish hayotni g`alvirda qum elab, oltin yiqqan zargardek qalb qudug`ida qayta ishlardi. Shuning uchun ham ilgarigi arabiyl, forsiy yozuvlarga «tishi o`tmay» qolayotgan yangi avlod ijodkorlari uchun Mirkarim Osim badiiy asarlarining mo`tabar, ishonchli tarixiy manba rolini o`tib qolmoqda».<sup>6</sup>

Tarixiy asar hozirgi zamonamizga, jamiyatimiz ideallariga moslab yozilsa, zarur va foydalidir. Ya`ni - eng muhimi-tarixiy davr ruhini ko`proq badiiy to`qima, fantaziya kuchi bilan qayta jonlantirish ham, asarni mutlaqo tarixiy material asosida qurish-ikkalasi ham badiiy adabiyot qonunlariga to`la mos keladi. Mirkarim Osim ana shu ikkinchi toifa ijodkorlar sirasidan bo`lib, yuqorida aytganimizdek, uning asarlari tarixan haqqoniyligi, asl manbalar asosida yozilganligi bilan mo`tabar badiiy manbalardir.

Mirkarim Osim ham Stalin qatag`onining begunoh ma`naviy qurbanlaridan biridir. Uning vatanparvarlik, millatparvarlik, o`tmish tarixga muhabbat ruhidagi asarlari o`z muallifiga qaro kunlar olib keldi. Adib ko`p

---

<sup>6</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида» (Мозий сабоқлари.М.Саттаров ). F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.Тош. 1987йил. 11-бет.

yillar sho`ro rejimining azoblarini chekdi.<sup>7</sup>

Domla tom ma'nodagi mohir tarjimon, ya'ni asarni chuqur his qilib, qayta yozib tarjima qiladigan ijodkorlardan edi. U.M.Sholoxovning «Tinch oqar Don» (2-kitob), S.Borodinining «Yeldirim Boyazid» romanlari va L.G.Batning «Hayot bo`stoni» qissasi va boshqa asarlarni o`zbek tiliga tarjima qilgan. «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan(2002 yil).

### **1.3. «To`maris» qissasida tarixiy haqiqatning badiiy talqini**

Ma'lumki, vatanparvarlik, qahramonlik, jangovorlik g`oyalarini targ`ib qiluvchi afsonalar, rivoyatlar, dostonlar va boshqa adabiy janrdagi asarlar milliy ma'naviyatimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki ularda ozod va obod hayot, tinchlik, mustaqillik haqidagi orzu umidlar tarannum etiladi.

Taniqli adib Mirkarim Osimning tarixiy qissalari qatoridan o`rin olgan. «To`maris», «Shiroq» qissalari qariyib yarim asrdan buyon maktab darsliklaridan o`rin olib kelmoqda. Bunga sabab iste'dodli yozuvchi xalqimizning juda olis zamonlaridayoq tinchlik, osoyishtalik istab chet el bosqinchilari va talonchilariga qarshi ayovsiz kurash olib borganligi, shuningdek, bu yo`ldan ona-Vatan tuprog`ini muqaddas bilib, javonmardlik ko`rsatgan tanti farzandlarini asarda ishonchli hayotiy detallar orqali badiiy ifodalab bera olganligidir.

Badiiy asarda har qanday tarixiy voqeanning jonli manzarasini ifodalay olish yozuvchi qalamining o`tkirligi va ijodiy salohiyatining etukligiga bog`liq. Qolaversa, asarda tarixiy haqiqat bilan badiiy to`qimani uyg`unlashtira olish ijodkordan yuksak iqtidor va iste'dod talab qiladi. Xususan, fikrimizning isbotini Mirkarim Osimning «To`maris» qissaning badiiy talqini misolida ham ko`ramiz. «To`maris» kadimgi jangovorlik, vatanparvarlik ruhida yaratilgan qissadir. Qissa qahramoni

---

<sup>7</sup> . Ўзбек адиблари. Жамоа.»Тошкент: Фан, 1993 йил, 60-бет.

To`maris miloddan avvalgi VI asrda massaget xalqiga bosh bo`lgan va O`rta Osiyo eriga tajovuz qilgan Eron shohi Kirga qarshi mardona kurash olib borgan malika. Bu ayol haqida qadimgi grek tarixchisi Herodot (484-425) o`zining «Tarix» kitobida «Kirning massagetlarga qarshi yurishi» degan sarlavha ostida hikoya qiladi. Hikoya mazmunidan matriarxat jamiyatning ta`siri sezilib turadi. Ma'lumki, «rivojlangan matriarxat jamiyati davrida qabila tepasida ayollar turgan».<sup>8</sup> Binobarin, hikoyadan ham ayol kishi - To`maris massagetlar qabilasining boshlig`i. U jahon xalqlari orasida mashhur bo`lgan afsonaviy amazonkalar - pahlavon ayollarning ibtidoiy namunasi sifatida namayon bo`ladi.<sup>9</sup> Hikoya syujetidan Kirning o`limi (eramizdan avvalgi 529) hamda To`marisning vatanparvarligi, qahramonligi, tadbirkor va oqila ayol ekanligi bayon etilgan. Hikoya mazmunidan bosqinchilik siyosatini qoralash, tenglik va mustaqillikni yoqlash g`oyasi targ`ib qilinadi.

Mirkarim Osim qissasida ham, Herodot hikoyasida ham To`maris ideal qahramon sifatida talqin etilgan bo`lib, jangovorlik, zo`r kuch-qudrat, to`g`rilik, do`stlik, adolatparvarlik, tadbirkorlik, donolikning ramziy ifodasi, shuningdek, yuksak axloq, pokiza qalb, mustahkam iroda egasi, nihoyatda qo`rqmas, mardi-maydon, jasur, qahramon ayol obrazi bo`lib kelgan.

Yozuvchi qissasida tarixiy haqiqatni saqlab qolish barobarida o`zining boy badiiy tafakkuriga ham tayanadi. Biz buni har ikki asar qiyosiy tahlilida ko`ramiz va yozuvchining ijodiy qobiliyatiga baho beramiz.

1. Herodot hikoyasi syujetining dastlabki qismi voqealarni keltirib chiqaruvchi tugundan boshlanadi. Unda Eron shohi Kirning massaget qabilasi boyliklarini egallah, hamda fuqarosini o`ziga qaram qilishi niyatida malika To`marisga sovchi jo`natishi undan rad javobini olishi va bu yo`l bilan o`z maqsadiga yetolmagach, unga qarshi urush ochish voqealari aks etgan.<sup>10</sup>

<sup>8</sup> Косвен М.О.Ибтидоий маданият тарихидан очерклар.1961,1316.

<sup>9</sup> Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. Т.: «Фан», 1981 йил, 83-бет.

<sup>10</sup> Косвен М.О.Ибтидоий маданият тарихидан очерклар.1961 ЙД316.

Qissada esa syujetning boshlanish qismini tabiat tasviri- peyzaj tashkil etgan.. Adib cho`l tabiatining ko`klam paytidagi go`zal manzarasidan kichik bir lavhani mahorat bilan badiiy tasvirlagan. Bu esa asarning g`oyaviy-estetik quvvatini oshirgan holda syujet voqealarini sekin -asta ochish uchun turtki bo`lgan.

2. Herodot massagetrarning urf-odati, kiyimlari, kundalik hayotlari, turmush tarzlari haqida hikoya echimidan so`ng umumiylar ma'lumot beradi.<sup>11</sup>

Mirkarim Osim esa obrazlar qiyofasida, nutqi, o`y -mushohadalarida hatti-harakatlari orqali bayon etib boradi. Shuningdek, ular mifologik, analistik tushunchalar, ayollar kulti qobig`ida ochila boradi. CHunonchi mana bu kichik epizodni olaylik:

«Elchi ovqat eb o`tirar ekan, doimiy ovul va shaharlari bo`lmagan massagetrarning qo`y va yilqilar orasida juda ibridoiy hayot kechirishga, ayollarining erkaklardek kurollanishiga, malikaning oddiy odamlar qatoriga o`tirishiga hayron qolar va. uning turmushini sernaqsh koshonalarda, zeb-ziynat ichida yashovchi Eron shohining hayoti bilan solishtirardi; SHuyam malika bo`ldi-yu, deb o`ylardi u, o`z fuqorolari bilan yonma-yon o`tirib ovqat eydi, sochlari o`sib, elkasiga tushan yilqichilar qo`l cho`zib, uning oldidan yog`liq go`shtni olib eydilar, na ostida oltin taxti bor, na boshida toji ayollar erkaklar bilan yonma-yon o`tirib, bir-birlariga gap otib, go`sht chaynashlarini qarang. Bu xotinlarning erlari rashk nima ekanini bilmasalar kerak. Tavba, ayol kishi ham quroq taqadimi? Bularda na qul bor va na xizmatkor, hammalari topganlarini o`rtada baham ko`radilar. YOvvoyi xalq-da! Qul bo`lishdan boshqa narsaga yaramaydi bular». <sup>12</sup>

---

<sup>11</sup> 1.Геродот. История. Ленинград, изд- во «Наука» 1972 год, 76- стр.

<sup>12</sup> 2.М.Осим. Жайхун устида булутлар. Тарихий киссалар. Тош. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975 йил, 5-бет.

Mazkur parchada yozuvchi elchining fikr-mulohazalari vositasida To`maris va uning qabilasi uchun xarakterli bo`lgan yana bir muhim jihatni yoritgan. Binobarin, yakka shaxs manfaatiga nisbatan qabila manfaati jamoa manfaati yuqori qo`yilganligini darhol anglash mumkin. Quyida keltirilgan parchadagi To`marisning elchiga qarata nutqi ham fikrimizga dalildir;

«SHahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo`lgandir, - dedi To`maris zaharxanda qilib. - Meni emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo`lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o`z tojdoringizga borib ayting; men uning taklifini qat'iyan rad etaman. Men unga qalliq bo`lishni, o`z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman». <sup>13</sup>

3. Herodot asarida bir qator tarixiy shaxslar - Kir (Eron shohi), Kambis (Kirning o`g`li), Krez (Kirning yaqin maslahatchisi), To`maris (massagetlar qabilasi malikasi) va Sparganis (To`marisning o`g`li) ning ismlari qayd etilgan. Ulardan Kir, Krez va To`maris hikoya syujetida markaziy qahramonlar sifatida faol qatnashadilar. Hikoyada bayon qilinishicha, Kir hamma vaqt Krezning maslahati bilan ish ko`radi. Keksa jangchi Krez Kirga massagetlarga qarshi boshqacha bir hiyla o`rgatadi.

«Ey, Kir» - dedi u, - agar sen o`z qo`sining qirilib ketmasin desang, fikrimni aytaman. Sen ularning inson ekanliklarini va taqdir hamisha bir xil bo`lavermasligini bilsang, u holda quloq sol! Agar biz dushmanni o`z erimizga o`tkazsangda engilsak, podshohligingdan batamom ayrilasan. CHunki g`olib chiqqan dushman mamlakat ichkarisiga tomon intiladi. Agar dushman eriga o`tib g`alaba qilsang, oldinga intilasan, lekin ularni hamma erda ta`qib qilish darajasida enga olmaysan. Xotin kishidan engilsang, chidab bo`lmas nomusga qolasan. SHuning uchun, yaxshisi, biz To`maris aytgan erga boraylikda, uni engishga harakat qilaylik. Menimcha, massagetlar eroniylarday noz-ne'matning lazzatini bilishmaydi.SHuning

---

<sup>13</sup> 1. Геродот. История. Ленинград, изд-во «Наука» 1972 год, 79-стр.

uchun biz sharobni ayamasdan, mollar, qo`ylar so`yib, katta ziyofat tayyorlaylik-da, yaroqsiz askarlardan bir qismini qoldirib, orqaga qaytaylik. So`ng o`zimizni g`alaba bilan sharaflaylik».<sup>14</sup>

Kir massagetlar yurtiga o`tgach, Krez ta`kidlanganidek, ziyofer tayyorlab, bir oz askar qoldirib, orqaga chekindi.

Massagetlarning bir qism qo`shini To`marisning o`g`li Cnapganic boshchiligidagi u erga kelib, qoldirilgan askarlarni engib, ziyoferga mashg`ul bo`ladilar. So`ng mast bo`lib qolgan lashkarlar uyquga ketadilar. SHu vaqt Kir hujumga o`tib, massagetlarning ko`pini o`ldirib, ko`pini asir oladi. Asirlar orasida shahzoda Sparganis ham bor edi.

To`maris voqeadean xabar topadi, Kirga elchi yuborib aytadi: «Ey qonxo`r Kir, uzum suvi yordamida bo`lgan bu voqeadean xursand bo`lma. Sen o`g`limni jang maydonida emas, nayrang bilan qo`lga olding. Endi qulqoq sol, senga bir yaxshi maslahatim bor. O`g`limni menga topshirgin-da, qilgan ishing uchun jazolamasdan yurtingga jo`na. Yo`qsa, Quyosh tangrisi bilan qasamyod qilib aytamanki, seni o`ldiraman».<sup>15</sup>

«Kir Sparganisning o`zini qo`yib yubormoqchi bo`ladi. Ammo Sparganisning bunga ko`nmay, xijolatdan o`zini o`ldiradi».<sup>16</sup> YUqorida ismlari zikr etilgan tarixiy shaxslar «To`maris» qissasidan ham mavjud bo`lib, YOzuvchi ismlar shaklini bir oz o`zgargan holda qo`llaydi. Masalan, Tomaris-To`maris, Kir-Kayxisrav, Spargapis-Siparangiz kabi qissasida yozuvchi ana shu tarixiy shaxslarga badiiy tafakkuri va yuksak ijodiy salohiyati bilan yondoshib, ularni badiiy obrazlar sifatida takomillashtirilgan. CHunonchi, Siparangiz timsolini olaylik. Mazkur obrazni Herodot hikoyasining kulminatsion cho`qqisida uchratamiz. Ya`ni yosh sarkardaning dushman tuzog`iga ilinib, o`zini halok qilishi voqealari orqali gavdalanadi. Yozuvchi Mirkarim Osim esa ana shu obrazni asar boshlamasidan to kulminaçıya nuqtasigacha bo`lgan syujet yo`nalishida harakatga keltiradi.

<sup>14</sup> М.Осим. Жайхун устида булуллар. - Тошкент.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 9-бет.

<sup>15</sup> Ўша асар. 10- бет.

<sup>16</sup> Геродот. История. Ленинград, изд - во «Наука» 1972 год, 77стр.

Siparangizning xarakteriga ko`ra soddadil, mard, vatanparvar jangchi, o`ta oriyatli yigit ekanligi uning nutqi, fikr-mulohazasida namoyon bo`ladi. Chunonchi, qissada dushman asiriga aylangan nafrat to`la nutqi ham o`zining xarakterini ochib beradi:

- Ha, sen bilan jang-jadal qilmoqchi edim, ammo bu baxt menga muyassar bo`lmadi, - dedi. - Sen ochiq erda rasmana jang qilishdan qo`rqib, hiyla-makr bilan bizni engding, qilich dastasini ushlagan qo`limga manfur sharob kosasini oldim va tuzoqqa ilindim».<sup>17</sup> Shuningdek, dushman nayrangiga uchib, hushyorlikni qo`ldan bergen Siparangizning kuchli ruhiy iztirob iskanjasida xayolidan o`tkazgan o`y-fikrlari uning xarakteri va ichki ma`naviy olamini yanada teranroq anglashga yordam beradi: - Qo`s himizning uchdan birini men nobud qildim. Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo`ldim.

Agar endi bo`s hatib yuborsalar ham o`z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman?». «Shu on Siparangiz qo`ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o`zining ko`ksiga sanchdiyu, mukka tushib jon taslim qildi».<sup>18</sup>

4. Qissada ikki-uch epizodda qisqa lavhadaginako`rinish bergen Zarina obraqi adibning badiiy to`qimasi mahsulidir. Hikoyada esa ushbu obraz va u bilan bog`liq hech qanday voqeа qalamga olinmagan. Zarina epizodik obraz bo`lishiga qaramay, asar syujetida o`ziga xos o`rin tutadi. Yozuvchi mazkur obraz orqali milliy marosimlarimizning juda qadimiyligi ildizlaridan kichik bir lavhani aks ettirgan. Ya`ni, yosh kelin-kuyov Zarina va Siparangizning kurash tushishlari epizodi beriladi.<sup>19</sup> Bu esa o`zbeklar orasida yaqingacha saqlanib kelgan tortishmachoqning ibtidoiy shakli edi. Ushbu obraz orqali yozuvchi, birinchidan, badiiy asar mazmunining milliy

<sup>17</sup> Геродот. История. Ленинград, изд -во «Наука» 1972 год, 78-стр.

<sup>18</sup> М.Осим. Жайхун устида булутлар. - Тошкент.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 9-бет.

<sup>19</sup> Геродот. История. Ленинград, изд-во, «Наука» 1972 год, 78-стр.

buyoq dorligini oshirgan bo`lsa, ikkinchidan, to`qima obrazni tarixiy real shaxs sifatida gavlantirgan. Qissada Zarina bug`doy rang, sochlari tim qora, ko`zlari chaqnab turgan ayol ko`rinishida tasvirlanadi. U asli shak qabilasidan bo`lib, har tomonlama iqtidor va shijoatga ega. U qiz bola bo`lishiga qaramasdan kuchli va chaqqaon. Uning bu kuch va g`ayratini Siparangiz bilan kurash tushganida, yigitning belidan ko`tarib, aylantirib uloqtirib yuborganida ko`ramiz.

Afsuski, Zarina va Siparangizning baxtli turmushi uzoqqa cho`zilmaydi. Lekin u taqdirga tan bergen holda ayriliqqa bardosh beradi.

##### 5. Hikoya va qissa echimida ham ma'lum farqlar mavjud.

Yunon tarixchisining bayon qilishicha vatan uchun so`nggi intiqom jangida farzand dog`ida kuygan To`maris qonxo`r Kirning jasadini topishni va kallasini kesib nayzaga sanchib qo`yishni buyuradi. U aytadi: - Garchi men jangda halollik bilan enggan bo`lsam-da, sen makkorlik bilan meni o`g`limdan judo qilib qayg`uga solding. Ontimga amal qilib seni o`ldirdim. Shu erda Herodot Kirning o`limi haqida har xil ma'lumotlar borligi to`g`risida ham qayd qilib o`tgan.<sup>20</sup>

Mirkarim Osim esa tarixiy obrazning xarakteridan kelib chiqqan holda Kayxisravning halok bo`lishi voqealarini bir-biriga uyg`unlashtirgan: «To`maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko`zlari yumuq, dahshatli kallani qo`liga olib, unga qaradi-da:

- Ey Kayxisrav, umr bo`yi jang qilib odam qoniga to`ymading, mana endi to`ygunincha ich!, - deb uni qon to`ldirilgan mesh ichiga soldi-da, mesh og`zini chilvir bilan bog`lab qo`ydi.»<sup>21</sup>

Asarda Iroq va Misrni, O`rta Osiyoning janubiy qismini qurol va oltin, makr-hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan shuhratparast shoh - Kayxisrav timsoli orqali o`z manfaatini o`zgalar

<sup>20</sup> Геродот. История. Ленинград, изд-во, «Наука» 1972 год, 79-стр.

<sup>21</sup> М.Осим. Жайхун устида булутлар. Тарихий киссалар. Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975 йил, 6-бет

manfaatidan ustun qo`yuvchi va bu yo`lda har qanday qabihlikka tayyor shoh qiyofasi namayon bo`lgan.

Har ikki asar syujeti tabiatan sodda, ixcham, epizodlar mantiqan uyg`un, to`qnashuvlar talqinida sirli vositalar deyarli uchramaydi. Voqealar juda jo`n, hayotiy haqiqatlar asosida kechadi.

Adib qissasida zo`r kuch va jangovorlik, dono aql va tadbirkorlik asosiy rol o`ynaydi. Syujet chizig`ini tashkil etgan epizodlarda hayotiylik kuchli. Asar ekspoziqiyasidan tortib echimigacha bo`lgan syujet yo`nalishida hikoya qilingan inson taqdiri, turli xil kaifiyatli kishilar bilan to`qnashuv va kurash, dushmanni engish yo`lida topgan tadbir- choralar baxt va ozod hayot, tinchlik, mustaqillik haqidagi orzu-umidlar hayotiy detallarda talqin etiladi.

Umuman, yozuvchi tarixiy manbalardagi dalillarga asoslangan holda ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashini go`zal, tarixiy shaxslarning epik obrazlarini yaratdi. Ular orqali o`zining vatanparvarlik, erk, istiqlol, insoniy qadryatlar masalalari bilan bog`liq qarashlarini tarannum etdi. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish joizki, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlarini qadimiy manbalar, san`at va adabiyot durdonalari, milliy qahramonlar hayoti va faoliyati tashkil qilar ekan, «To`maris» qissasida olg`a surilgan g`oyalar va asar qahramonlarining jasorati ham milliy istiqlol mafkurasining taraqqiyotiga munosib hissa qo`shadi.

## **II. bob. «O`tror» qissasida tarixiy shaxs va badiiy xarakter masalasi.**

### **2.1. Qissada Chingizzon obrazi.**

Mustabid tuzum davrida qadimdan boy madaniy, adabiy mepocra ega bo`lgan xalqimiz ma'lum muddat ulardan ko`r-ko`rona voz kechishga majbur bo`ldi. O`zining eng asl farzandlarini unutishga, ularning to`g`ri ishlarini noto`g`ri baholashga majbur bo`lindi.

Mustaqillik tufayli ularning pok nomlari yana tiklandi. Asarlarda tasvirlangan qahramonlar nomlari yana qayta-qayta eslana boshlandi. Bular buyuk xorazmshohlarning eng so`nggi sarkardasi Sulton Jaloliddin Manguberdi, Xo`jand hokimi Temur Maliklar edi. Mamlakat ravnaqi va farovonligi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bog`liq bo`lsa, uning madaniy-ma`naviy saviyasi jahon tamadduniga qo`shgan hissasi bilan o`lchanadi. Sharq uyg`onish markazlaridan biri hisoblangan ko`hna Xorazm ham jahon tarixida buyuk siymoylarni, yirik davlat arboblarini va jasur sarkardalarni etkazib bergen yuksak madaniyatli davlat bo`lib tanilgan.

Mo`g`ullar istilosи arafasida Xorazm ancha yuksalib kelayotgan o`rta asrlarga xos G`arbdagi feudal monarxiyalarga o`xshash shakllanayotgan yirik davlat sifatida tanilgan. Ammo o`z davrining mahsuli hisoblangan bu monarxiya ham ichki va tashqi siyosatida o`ziga xos kuchli va zaif tomonlari, katta-kichik ziddiyatlar va turli nizolar bilan rivojiana boshlagan. Bu holatni nafaqat yozma manbalarda, balki arxeologik va etnografik kashfiyotlar tufayli to`plangan materiallar asosida ham tasavvur qilish mumkin. O`sha vaqtda O`tror shahri ham O`rta Osiyoning sharqi shimol chegarasidagi eng yirik shaharlardan biri bo`lib Xorazm sultonligi ixtiyorida edi.

Yozuvchi Mirkarim Osim «O`tror» nomli qissasini tarixiy manbalarga asoslangan holda yozishga harakat qildi. Yozuvchining ta`rificha: “Shahardan to`rt-besh chaqirim nariroqda Sirdaryoga quyiladigan Ars suvi O`tror vohasini sug`orib, gullatgan edi. Bu viloyatda yashovchi mehnatkash

va jafokash xalq Arsdan anhorlar chiqarib, biydek dashtni bog`-bo`stonga, bug`doyzorlarga aylantirgan edi. Sharq tomondan bu obod erlarga ko`chmanchilar bostirib kelganda dehqonlar omochni tashlab, qo`llariga qilich olar, Movarounnahrni, ya`ni Sirdaryo bilan Amudaryo o`rtasidagi jannatdek o`lkani ko`ksilari bilan to`sib, bosqinchilarni uloqtirib tashlardi».<sup>22</sup>

«O`tror» qissasida ham shaharni asl farzandlari tish-tirnog`i bilan ona tuprog`ini himoya qiladilar. Asarning asosiy obrazlaridan biri O`tror hokimi Inolchiqdir. Tarixiy manbalarda keltirilishicha O`tror amiri G`ayrixon Inol Chingizzon elchilarini ayg`oqchi deb ayblab hammasini qatl qildiradi va barcha mollarini musodara etadi.

Badiiy asarda ham mana shu hayotiy haqiqat ro`yi-rost aks ettiriladi. Inolchiq o`ta mag`rur va o`ziga qattiq ishongan va shafqatsiz shaxs edi. U Chingizzon tomonidan elchi bo`lib kelgan 450 savdogarni asl musulmon ekanligiga qaramasdan qatl qildiradi va mol-mulkini musodara etdi. Chunki, birinchidan, elchilarning musulmonligi va ular orasida o`trorliklarning ham borligi G`ayrixonni g`ashini keltiradi. Ikkinchidan, ularni Xorazmga o`tkazib yuborish mumkin emas edi. Bu sotqinlar Xorazmga kirib borsa, ko`p narsani bilib olib Chingizzonga qimmatli ma'lumotlar olib ketgan bo`lar edi.

Asardagi Inolchiqning bu harakati orqali uni quvlik-shumlikni, riyokorlikni bilmaydigan cho`rtkesar va qaysar odam ekanligini anglab etish mumkin. Inolchiqning bu xatosini tarix sahifalarida unutib bo`lmas yaxshilik ekanligini kayd etishdi.

Chingizzonning O`trorga qilgan hujumi kuzning boshlanishiga to`g`ri keldi. Mo`g`ullar shaharni qamal qilishga kirishdilar. Chingizzonning buyrug`i bilan O`trorni va Inolchiqni bir yoqlik qilish uchun Chig`atoy bilan O`qtoyni qoldirildi. Mo`g`ullar qo`shinlari jangga har tomonlama puxta

<sup>22</sup> 1.М.Осим. «Карвон йўлларида». Фафур Фулом номли. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. 139-бет.

tayyorgarlik ko`rgan edilar. Shuning uchun ham O`trorni olish hech ish emas edi. Inolchiq ham, boshqa sarkardalar ham qanchalik harakat qilib vatanni himoya qilmasin, baribir, dushman ulardan ustun edi. Inolchiq o`zining katta xato qilib qo`yanligini bilsa ham o`z mag`rurligidan voz kechmadi. Uni asir etib Samarqandga Chingizzon huzuriga olib bordilar. U Chingizzon huzurida ham mag`rurligini saqlab turaverdi. Chingizzon ro`parasida turgan dushmani Inolchiq ekanligini bilsa-da: - Bu kim?! - deb jo`rttaga so`raydi va - E, Inolchiqmi? savdogarimizni o`ldirib molimizni talagan Inolchiq shu ekan-da. Ha-ha! deya nafratlanadi. Chingizzon unga xizmatiga kirishni taklif qilganida: - Men o`z ulusimga xiyonat qilmasmen, dushman xizmatiga kirmasmen! - deb javob beradi. Bu gaplarni eshitgan xonning g`azabi qaynaydi va uning qulog`iga eritilgan kumushni quydiradi.<sup>23</sup>

Mirkarim Osim o`z asarida butun dunyoga hukmron bo`lishni xohlagan va bu yo`lda kurashgan Chingizzon obrazini o`ziga xos tarzda aks ettiradi. Mirkarim Osimdan tashqari boshqa yozuvchilar ham ko`p asarlarda va manbalarda Chingizzon haqida ma'lumotlar berishgan.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, Chingizzon juda katta qo`sishni to`plab, juda ko`p davlatlarni bosib olgan va hukmronlik qilgan. Asli haqiqat Xorazm shohining katta xatosida - Chingizzon tomonidan savdo-sotiq masalalarida cho`zilgan qo`lni rad qilishi edi. Xorazmshox Alovuddin Muhammad Chingiz yuborgan ko`psonli savdo karvonining Uxun boshchiligida hisbga olishni buyurgan. O`tror amiri G`ayrixon Inol esa elchilarni ayg`oqchi deb ayblab, hammasini qatl qildirgan, barcha mollarini musodara etgan. Odat bo`yicha elchilarni o`ldirish mumkin emas edi. Elchilar bilan Chingizzon yuborgan 450 savdogar ham asli musulmon bo`lgan. O`trordagi Chingizzxonning 450 savdogaridan tirik qolgan bittasi kelib xonga bo`lgan fofjani batafsil gapirib bergen. «Mo`g`ul solnomalarida qayd etilganidek, Chingizzon o`ziga yaqin kishilarni yig`ib shunday degan ekan: Sartaul xalqiga qarshi yurish

<sup>23</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида». Фафур. Ўзбек тили. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987 йил. 139-бет.

boshlayman va qonuniy ravishda O`xun boshchiligidida yuzlab qatl qilingan elchi kishilarimiz uchun qasos olaman. Sartaul xalqiga bizning tilla shoxli jilovimizni bezajso yulib tashlashga yo`l qo`yish mumkinmi ?! Ma'lumotlarga ko`ra Chingizzxonning Xorazmshohga qarshi chiqishining yana bir sababi manmanlik qilib, o`zini olamni boshqaradigan yakka podsho deb hisoblashi edi.<sup>24</sup>

Asarda Chingizzxonning o`g`illari va nuyonlari bilan qilgan kengashi bayon etiladi. “Chingizzxon chetlari ko`tarilib qo`yilgan chodirida to`rt o`g`li va mashhur no`yonlari bilan kengash qilardi. Chap tomondagи hurmatli o`rinni uning to`rt o`g`li: Jo`ji, Chig`atoy, O`qtoy, Tuli ishg`ol etishgan, o`ng tomonida mashhur sarkarda Jaba nuyon, Uloq nuyon, bir ko`zli Subutoy bahodir, Saktu tiz cho`kkан holda o`tirardilar».<sup>25</sup>

Chingizzxon mana shu kengashda Xorazmshohning uch sher yurak sarkardalariga e'tiborni qaratdi va asosiy kuchlarni ham ularning kuchiga yarasha taqsimladi: - “Bilishimcha, sultonning uch sher yurak sarkardasi bor. Ularning biri - Jaloliddin Manguberdi, ikkinchisi - Xo`jand hokimii Temir Malik, uchinchisi - O`tror hokimi - Turkon xotunning jiyanı Inolchiqidir. Sultan bilan Manguberdiga qarshi Tuli bilan Jaba nuyonni olib o`zim borermen. Inolchiqni bir yoqlik qilmoq uchun bu erda Chig`atoy bilan O`qtoyni qoldirurmiz. Temir Malik bilan bel olshigani Uloq nuyon bilan Saktuni yuborg`aymiz. Jo`ji esa Jand, Binokent, Yangikentni qamal qilib olsin...».<sup>26</sup> Chingizzxon o`zining yaxshi tizimga asoslangan ayg`oqchilar tarmog`i orqali Xorazmshohlar davlatining ahvolidan xabari bo`lsa ham, Movaunnahr ahlini osonlikcha bo`ysundirib bo`lmasligini yaxshi bilib, puxta tayyorgarlik ko`ra boshladi. «Chingizzxon 1219-yili o`z o`g`illari boshchiligidida anchadan beri puxta tayyorlangan 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan

<sup>24</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида». Faafur. Fулом номли. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987 йил. 139-бет.

<sup>25</sup> И. Жаббаров. Буюк Хоразмшохлар давлати. «Шарқ». Тошкент. 1999 йил, 122-бет.

<sup>26</sup> М.Осим. «Жайхун устида булувлар». F. Fулом нашриёти. Адабиёт ва санъат нашриёти, Т, 1975,  
31

Xorazm anushtegiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi».<sup>27</sup> Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo`yida o`tkazib, sentyabr oyida chegaradan o`tadi. Chingizzonga uyg`ur xoni Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig`noqteginlar ham o`z qo`shini bilan kelib qo`shilgan. Chegaradan o`tgan Chingizzon o`z qo`shinini janubiy qozoq cho`llarinig Sirdaryoga tutashgan joyidagi O`tpop shahri yaqinida to`plab, uni 4 qismga bo`ladi. “Chig`atoy bilan O`qtoy qo`shinning bir qismi bilan O`trorni qamal etib, egallah uchun qoldirildi. Ikkinchisi qism esa Jo`sh boshchiligidagi Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchinlikent, Siznoq shaharlarini bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismdagi besh ming chog`li ko`shinga Uloq no`yon va Suketu cherbi bosh bo`lib O`trordan janubga, Xo`jand va Banokatni egallah vazifasi topshirildi.

Chingizzon o`zi bosh bo`lgan to`rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi). Zarafshon vohasi tomon - Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo`l oldi».<sup>28</sup>

Asarda Chingizzonning nevarasi bilan yo`lbars oldida qilingan suxbat beriladi.

- O`tror shahri ichinda bundan ham zo`r bir yo`lbars bor, to`rt yuz ellik elchining boshini egan, Chig`atoy bilan O`qtoy amaking yo`lbarsni tutib, zanjirga bog`lab kelturg`aylar».<sup>29</sup> Chingizzon yo`lbars deb G`ayirxonni nazarda tutgan edi. “Oradan uch kun o`tganch, Chingizzon Chig`atoy va O`qtoya yuz ming askar qoldirib, o`zi suyukli o`g`li Tuli va o`lug` Nuyon Jaba bilan Qizilqum sahrosi orqali Buxoro ustiga lashkar tortdi».<sup>30</sup>

Tarixiy manbalarda esa Chingizzonning Buxoroga yurishi shunday yozilgan: “Chingizzon 1220-yilning fevral oyи boshlarida (ba`zi adabiyotlarda 7 fevralda) Sharqning qadimiy go`zal shahri, Sharqdagi islom

<sup>27</sup>М.Осим. «Жайхун устида булутлар». Ф. Фулом нашриёти. Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975, 107-бет.

<sup>28</sup>Ўзбекистон тарихи. Тошкент» Янги аср авлоди». 2003, 231-6.

<sup>29</sup> 1. М.Осим. «Жайхун устида булутлар». Ф. Фулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 109-бет.

<sup>30</sup>М.Осим. «Жайхун учтида булутлар». Фулом Фулом номли. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 109-бет.

dini gumbazi, “butun musulmon shaharlari onasi” nomini olgan “Islomiy ishlar markazi” Buxoro yaqinida paydo bo`ldi. Uch kunlik shahar qamali boshlandi».<sup>31</sup> 10 fevral kuni mo`g`ullar Buxoroni ishg`ol etadilar. Chingizxonning dahshatli yurishi, O`rta Osiyoning barcha va shaharlarini vayronaga aylantirdi, aholini qirib tashladi. Lekin Chingizxonning yurishlari ichida O`trorga qilingan hujumni tarix unutmeydi.

“Xoh o`tmishda, xoh bugun bo`lsin, boshqa millat davlatni o`ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya’ni qaram xalqning ma’naviy, madaniy, tarixiy merosini yo`q qitshsh, undan judo etish”.<sup>32</sup>

Darhaqiqat, yozuvchi Mirkarim Osim “O`tror” qissasida mana shu tarixiy haqiqatni mubolag`asiz tasvirlagan deb ayta olamiz. Chingizxon qo`smini bir oy davomida O`trorni topadi, madaniy merosni yo`qqa chiqarib yoqib tashladi, qimmatbaho narsalarni yurtiga olib ketdi.

## 2.2. Minglioy va boshqa ayollar obrazi

Adib qissada ayollar obrazini o`ziga xos tarzda ifodalaydi. Mo`g`ul bosqinchilarining O`rta Osiyoni va butun jahonni zabt etish yo`lidagi xattiharakatlari davomida qanchadan-qancha ayollarni chopib tashlaydilar, yosh qizlarni nomusini toptadilar, sulton, hokim va shahzodalarning tirik qolgan xotinlarini o`zlariga xotin qilib oldilar. Lekin nomusli ayollar dushman changaliga tushishdan ko`ra o`limni afzal ko`rdilar. Tarixiy manbalarda yozilishicha xitoylik ayollar o`zlarini yonib turgan uylarga otganlar, xo`jandliklar minoralardan sakraganlar, o`trorliklar yonib turgan tomlarga sakraganlar. Shunday qilish bilan ular o`z nomuslarini, ayollik iffatlarini saqlab qolganlar. Tarix bunday fojiani hech qachon unutmeydi.

Mirkarim Osim qissasida Toshtemirning qallig`i Menglioy obrazini juda qisqa epizodik ko`rinishda aks ettiradi. Menglioy - oddiy mehnatkash oilaning farzandi. U Toshtemirga unashtirib qo`yilgandan keyin bor- yo`g`i bir oygina

<sup>31</sup> Ўзбекистон тарихи. «Янги аср авлоди» Тошкент.: 2003, 232-бет.

<sup>32</sup> И.А.Каримов. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ». «Шарқ» НМК 1998. 24-бет.

uchrashib turishadi, xolos. Qiz Toshtemirni kelishini sabrsizlik bilan kutadi. Asar syujeti bo`yicha Toshtemir hokim topshirig`i bilan Xorazmga - sulton huzuriga chopar bo`lib ketishdan bir kun oldin halol nikohni afzal ko`rib, o`rtalariga qilich qo`yib ont ottiradilar. Mo`g`ul lashkarlari ko`chalarni itday kezib, uylarni ag`dar- to`ntar qilib, aholini talaydilar. Qariya va bolalarni chopib o`ddiradilar. Chiroyli ayollarni izlab ko`ngilxushlik qilmoqchi bo`ladilar.

Menglioy ham mo`g`ul yigitlarining diqqatini jalb etmaslik uchun yangasining maslahati bilan eski kiyim kiyib, yuziga qorakuya surtib olgan edi. Lekin bunday holatda ham qizning go`zalligini yashirib bo`lmas edi. Mo`g`ul yigit qizning qo`liqdan ushlab yoruqqa solib ko`radi va sheriklariga shunday deydi:

- Mana bu go`zalni qara, yuziga qora surtib, bizni aldamoqchi bo`libdiya. Menglioy mo`g`ul yigitining qo`lidan chiqib tomga chiqib ketadi va qo`schnisining yonib turgan tomiga o`zini uradi.

Asarda Menglioyning yangasi obrazi ham beriladi. Yanga obrazi ham Menglioy - obraziga o`xshab asarda juda kam ishtirok etadi. Lekin obraz - personaj sifatida o`zining ijobiy va o`ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. U Toshtemir bilan Menglioyni uchrashuvchi ko`prik vositasini o`taydi. O`sha vaqtdagi urfatlarni ham yangaga bog`liq xatti-harakatlar orqali yaqqol anglab olish mumkin. Masalan, Temirtoshning yangaga olib borilgan sovg`a-salomlarini olishimiz mumkin. Yanga o`z oilasiga, qaynisinglisi Menglioya vafodor ayol. U qizning nomusini saqlab qolish uchun qattiq harakat qiladi. Qizning yuziga qorakuyalar surtadi, juldur kiyimlarni kiydirdi. Lekin uning go`zalligini yashira olmadi. Mo`g`ul yigit Menglioyning orqasidan tomga qarab chiqib ketayotganda uning oyog`iga yopishdi. Shunda ikkinchi yigit erda yotgan yangani qilich bilan chopib tashlaydi. Yanga ham boshqa ayollarga o`xshab o`z ayollik or-nomusini, burchini, oila oldidagi

mas'uliyatni yaxshi bilgan va bu yo`lda qurbon bo`lgan ayollar timsolidir.

Mirkarim Osim asarda o`ziga xos bo`lgan onaning tipik vakilini yaratdi. Bu Temirtoshning onasi obrazi edi. Ona hamma onalarga o`xshab farzandiga mehribon va jonkuyar. Temirtoshning bolalik vaqtlarida kattalar mehnatini qilayotganiga rahmi keladi. Bolani bir oz bo`lsa-da, dalada aynab kelishiga ruxsat beradi. Onaning farzandiga etkazgan sharoiti bois Temirtosh o`q otishni va otda yurishni o`rganadi. Keyinchalik esa bu Temirtosh hayotini o`zgartirib yuborishda qanchalik muhim ekanligini u tasavvur ham qilmagan edi. Turmush o`rtog`i o`lib ketgan ayol ukasinikida farzandini yolg`iz tarbiyalaydi. Temirtosh o`nboshilik lavozimiga ko`tarilgan vaqlarda ularning uyida hamma shart-sharoitlar mavjud, ro`zg`or kamu ko`satsiz edi. Lekin ayol juda qarib qolgan edi. SHuning uchun ham o`g`li uni o`zi bilan olib ketmoqchi bo`ladi. Lekin kampir uydan ketishni xohlamaydi. Temirtosh uni qanchalik majburlasa ham ko`ndira olmaydi. Uyini chirog`ini o`chib qolishini, istamagan onani mo`g`ullar chopib, kallasini uzib tashlaydilar.

Qissada O`tror hokim Inolchiqning xotini Oysuluv timsoli ham aks ettirilgan. Yozuvchi asarda Oysuluv xarakterini va qiyofasini birligina ziyofat vaqtida ochib berishga harakat qiladi. Inolchiqning taklifi bilan u Qoracha Hojib bilan o`lan aytishadi. Bu go`zal ayol raqibining har bir haziliga ustalik bilan javob qaytarib hammani hayratga soladi va olqishlar oladi.

Yozuvchi mana shu bir kichik aytishuv sahnasi orqali o`sha vaqtida ham ijodkor ayollar borligini ham uqtirib o`tadi. Bundan tashqari Oysuluv - eriga vafodor. U Inolchiqning eng so`nggi chorasi qolmagan daqiqalarda ham unga vafodorligicha qoladi, qo`lidan kelganicha unga ko`maklashadi. Oysuluv tom ustida mo`g`ul yigitlari qo`liga tushmaslik uchun o`zini ko`chaning narigi betidagi yonib turgan olovga tashlaydi.

Asarda O`tror tarixida yuz bergen dahshatli voqeа aks ettiriladi. Mo`g`ullar O`tror xotin-qizlarini bir erga to`plab, o`zlariga yoqqanlarini tanlab oladilar. Qolgan ayollarni kiyim-kechaklarini echib tashlaydilar. Qip yalang`och ayollar uyalganlaridan erga kirib ketgudek bo`lishadi. Shunda chekkaroqda turgan bir ayol mo`g`ullarga qarab: - O`ldirsalaring tezroq o`ldiringlar, juvonmarglar, bu sharmandalikdan o`lgan yaxshi! - deb baqiradi. Shunda otliq mo`g`ul yigitlari yalang`och ayollarni birma- bir qilich bilan chopib, er bilan bitta qilib tashlaydilar.

### **2.3. Sulton Horazmshoh va boshqa obrazlar**

Sulton Aloviddin Muhammad haddan tashqari manmanlikka berilib ketgan va o`zini olamni boshqaradigan yakka podsho deb hisoblar edi. U buysundirgan yurtlarda mahalliy hokimlarni qatl qildirib, barcha erlarni o`z qarindoshlari, amirlari va amaldorlariga bo`lib bergan edi. Oqibatda ilgarigi hokimlarga xizmat qilib kelgan harbiy boshliqlarni, to`ra va beklarni o`ziga qarshi norozi qilib qo`ygan. Xorazmshoh yirik qo`sishinlarini Amudaryoning nargi qirg`og`iga olib o`tib, qolgan qismlarini bo`lib yuborgan edi.

“O`tror» qissasida Muhammad Xorazmshoh obrazi yaqqol ko`zga tashlanmaydi. Lekin, muallif tilidan uning xatti-harakatlari asar qismlarida bayon etib boriladi. Masalan, O`tror hokimi Inolchiq Chingiz savdogarlarini o`ldirib yuborishni sultondan so`rab elchi yuboradi. Temirtosh O`trorga Xorazmshohning javobini olib keladi. “Sulton Inolchiqning fikrini to`g`ri topib, sotqin savdogarlarning mollarini musodara qilib, o`zlarini qatl etishga rozilik bergen edi».

Chingizzonning elchilari o`ldirilgandan keyin har ikki tomon urushga hozirlik ko`ra boshladi. Xorazmshoh, har bir shahar, har bir qo`rg`on o`zini o`zi mudofaa qisin, deb buyruq beradi. Sulton o`zining shaxsiy mulozimi Qoracha Hojibga o`n ming otliq askar berib, O`trorga jo`natdi. Saroy soqchilarining sardori Temur Malikni bir necha ming askari bilan Xo`jandga yubordi.

Muhammad shohning Chingizga qarshi tuzgan strategik rejası mutlaqo yaroqsiz edn. Bir qancha shaharlar chinakamiga mardlarcha himoya qilinib, mo`g`ullarning kuchlari ko`p oylar tiyib turilganiga qaramay, bu qal'alar birin-ketin taslim bo`la boshladi. Buxoro va Samarqandga berilgan zarba tufayli poytaxt Urganch yakkalanib qoldi. Oqibatda Chingizning oldin qo`sishnlari tez orada Amudaryo sohiliga etib keldi va Xorazm shohining kuchli hisoblangan ulkan armiyasini porakandalikka soladi. Oqibatda son jixatdan kam bo`lgan Chingizzon qo`sishnlari g`alaba qozonadi. Lashkar boshlari Jebe va Subutoyning yigirma minglik eng yaxshi qo`shii Alovuddin Mumuhammadni Kasbiy dengizi tomon chekinishga majbur qildi va u erdag'i orollardan biriga yashiringan buyuk shoh o`sha erda o`lib ketdi. Xorazm shohi 1220 - yilning dekabr oyida vafot etadi va uning jasadini ko`mish uchun hatto kafan topilmagan». <sup>33</sup>

Asarda tarixiy shaxslardan bo`lgan elchi Mahmud Yalvoch obrazi aks ettiriladi. Elchini Xorazmshoh bilan uchrashish va muzokara olib borish uchun Buxoroga qilingan tashrifi bayon etiladi. Asli Xorazmlik bo`lgan Mahmud Yalvoch Chingizzxonning elchisi sifatida tashrif buyuradi. Sulton kechasi elchini huzuriga taklif qiladi. Sulton Mahmud YAlvochning yolg`on va'dalariga uchib, uning «josus» ekanligini ham unutdi. Xorazmshoh Mahmud Yalvochni mo`g`ul qo`sini to`g`risida maxfiy ma'lumotlar yuborib turishga ko`ndirdi. Muallif bayon etgan quyidagi fikrlar fikrimizning isbotidir: «Shu topda u Chingizzxonning ilonnikidek hech pirpiramaydigan, odamga tik qaraydigan ayyorona targ`il ko`zini ko`rgandek bo`ldi, uning: "Hoy Mahmud, sen sulton nima desa, xo`p deyaver josuslikni taklif etsa - qabul qilaver, qo`rqma» degan so`zlarini eshitganday bo`ldi». <sup>34</sup>

- Sizdek ulug` podsho menga xizmat taklif etadurlar-u, men yo`q deymanm-

<sup>33</sup> И.Жаббаров «Буюк хоразмшоҳлар давлати». «Шарқ». Тошкент. 1999 йил, 123-бет.

<sup>34</sup>Ўзбекистон тарихи. «Янги аср авлоди» Тошкент. 1987 йил 145бет.

у, xizmat kamari belimda, sadoqat nuri dilimda, ne amringiz bo`lsa, buyuravering, dedi Yalavoch qat'iy ohangda».<sup>35</sup>

Mana shu suhbatda so`ng oradan bir hafta vaqt o`tgach, Mahmud Yalvoch sulton bilan savdo bitimi tuzib, Mo`g`ulistoniga qarab yo`l oddi. U Xorazmshohdek podshoni aldab, xoqon uchun Xorazm davlatining ichki ishlari to`g`risida qimmatbaho ma'lumotlar olinb, ortga jo`natdi.

«O`z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch tarixchi an - Nasaviyning yozishicha, «Sulton eshitishni xohlagan» ma'lumotni aytib, sulton taklifiga ko`nadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg`a qilib, Chingizzon bilan shartnomaga tuzishga rozi ekanligini bildiradi».<sup>36</sup> Tarixiy manbalardan ham shu narsa ayon haqiqatki, Mahmud Yalavoch «josus» rolini o`ynab, bor haqiqatni Chingizzonga etkazadi. Shu yiliyoq Chingizzon o`z minnatdorchilagini izhor etish ma'nosida va shartnomaga tuzish uchun o`z elchilari va savdo karvonini jo`natadi.

Asarda to`qima obraz hisoblangan Qoracha Hojib timsoli ham berilgan. Qoracha Hojibni dastlab sultonning shaxsiy mulozimi sifatida ko`ramiz. Xorazmshoh elchi Mahmud Yalvoch bilan kechasi uchrashuv o`tkazayotganda u elchini kuzatib turadi.

Keyinchalik asar davomida Qoracha Hojib obrazi keskin qiyofa aks ettira boshlaydi. Uni Xorazmshoh o`n ming kishilik askarlari bilan O`trorga jo`natadi. O`tror hokimi Inolchiq uni yaxShiroq bilish maqsadida ziyofat uyushtiradi. O`sha ziyofat vaqtidayoq hokim uning «so`z uqtirib bo`lmaydigan nodon va aravani quruq opqochadigan kishi» ekanligini payqab oladi. Chunki u suhbat vaqtida: - Qayg`urma, G`oyirxon birinchi savashdayoq mo`g`ul qo`s Shinlarini to`zg`itib

<sup>35</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида» Ф. Фулом номли. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил, 161-бет

<sup>36</sup> И.Жаббаров, Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Шарқ, 1999, 118-бет.

yuborg`usimizdir,»<sup>37</sup> - deb ko`kragini keradi.

Keyinchalik esa Qoracha Hojibni xoin sifatida ko`ramiz. U o`z askarlarini va vatanini sotadi. Qal'a darvozasini dushmanga ochib beradi. Bu bilan o`z jonini saqlab qolmoqchi bo`ladi. Lekin mo`g`ullar ham xiyonatkor Hojibni o`limiga mahkum etadilar.

- O`z podshosiga xiyonat qilgan kishi begona podshoga sodiq bo`lmaydur»<sup>38</sup> - deya Chingizzxonning o`g`li Chig`atoy uning kallasini oldirib tashlaydi.

Yozuvchi Mirkarim Osimning «O`tror» qissasi kichik hajmli asar bo`lishiga qaramasdan, juda katta tarixiy voqeani o`z ichiga qamrab oladi. Juda ko`p tarixiy shaxslar va to`qima obrazlar ishtirok etadi.

Asarning bosh qahramoni Inolchiq timsoli orqali mohir sarkarda, jasur jangchi va o`ta qiziqqon inson obrazini aks ettiradi. Qissada Inolchiq timsoli murakkab inson sifatida aks ettirilar ekan, muallif uning katta-kichik yo`l qo`ygan xatolarini ham badiiy dalillab, asoslab beradi.

Asardagi keyingi obrazlar Temirtosh va Qulnazar obrazlaridir. Bu to`qima obrazlarning yaratilishida xalq hayotini mukammal va puxta o`rgangan adibning mahorati yaqqol ko`rinadi.

Asardagi ayollar timsoli ham o`ziga xos o`rirlarni egallaydi. Toshtemirning qallig`i hisoblangan Menglioy ham to`qima obraz tipik timsolini to`la-to`kis ochib bera olgan.

Qissadagi Temirtoshning onasi ham to`qima obrazdir. Lekin u o`z uyiga, yurtiga sodiq ayol. O`z uyini tashlab keta olmaydi. Ona obrazi o`sha vaqtdagi oddiy mehnatkash va jabrdiyda ayollarning tipik vakili edi.

Asardagi yozuvchi boy-badavlat va hukmron sinf vakillarining a`zosi hisoblangan Oysuluv timsolini ham aks ettiradi. Oysuluv O`tror hokimi Inolchiqning turmush o`rtog`i va umrining oxirigacha u o`z nikohiga sodiq qoladi. Mo`g`ul sarkardasiga xotin bo`lishdan ko`ra o`limni afzal ko`radi.

---

<sup>37</sup>

<sup>38</sup>

Asardagi O`tror ayollari obrazi haqidagi ma'lumotlarni muallif tarixiy haqiqat asosida yozishga harakat qilgan. Bu opa-singillar o`zlarini ona yurti uchun, oilasi uchun qurban etadilar. Qissadagi Chingizzxon timsoli ham tarixiy shaxs sifatida o`ziga xos qiyofada aks ettirilgan.

Ma'lumki, «XII asr boshlarida qudratli imperiyani tashkil qilgan Chingizzxonning qo`shini 1218-1219 yillarda Jebe boshchiligidagi qo`shinlari Ettisuv va Sharqiy Turkiston erlarini egallab, butun Movarounnahr, qisman Eron, Afg`oniston, Old Osiyo va Kavkazgacha keng terroriyani o`ziga buysundirib Xorazm davlati chegaralariga yaqinlashdi».<sup>1</sup>

Buning ustiga hukmdorning, ya`ni Xorazmshohning subutsiz va mas'ulyatsizligi, harbiy boshliqlarning o`zaro ittifoq bo`lmaganligini, xali va mamlakat taqdirining o`z holiga tashlab qo`yilganligi Chingizzonga juda qo`l keldi. Shuning uchun ham Chingizzxon osonlik bilan g`alabaga erisha oldi.

Qissada Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi ham beriladi. Sulton Alovuddin - Muqammad haddan tashqari o`ziga ishongan o`zini olamni boshqaradigan yakka podsho deb hisoblagan. U ayshu ishrat va kayfu safoga berilib, mamlakat ishlariga e'tiborsizlik balan qaraydi. Asarda tasvirlangan elchi Mahmud Yalvoch bilan bo`lgan suhbatida ham Sultonning naqadar ochko`z va kaltafahmiliги seziladi.

Muhammad Xorazmshohga qo`shinini birlashtirish haqidagi ba`zi takliflar bildirilganida e'tiborsizlik bilan qaraydi. «Asli xivalik mashhur tarixshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin as - Hivaqiy bor qo`shinni Sirdaryo bo`yiga to`plab, uzoq yo`l bosib kelayotgan mo`g`ul qo`shiniga chegara bo`yidayoq hal qiluvchi zarba berish to`g`risida yagona va harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi.

### **III-BOB. “Zulmat ichra nur” qissasi**

#### **1.1.Qissasi tarix va talqin.**

Tarixdan shu haqiqat ayonki, xalqchil, insonparvar va yuksak sa'at

namunasi bo`lgan asarlarga davrlar sinovidan o`tib, kelajak avlodlarga mana`viyat va ma`rifat nurlarini taratib, mahbub va ardoqli meros sifatida qadrlanadi, Ulug` Alisher Navoiy yaratgan bebahol badiiy durdonalar ana shunday e`zozga egadir.

Alisher Navoiyning har bir so`zi bugungi kunda ham serma`no hikmat kasb etmoqda. Har bir adabiyotdagi inson talqinining muayyan o`zgarishlarga uchrab borishi, eng avvalo, ijtimoiy tarixiy taraqqiyot talabi bilan uning tabiatiga hamohang tarzda sodir bo`ladi. Ijtimiy taraqqiyotda muayyan o`zgarishning sodir bo`lishi badiiy tafakkurning barcha qatlamlarida o`zining o`chmas muhrini qoldiradi. Natijada sodir bo`lgan, bo`layotgan va sodir bo`lishi mumkin bo`lgan voqeа-hodisalarni g`oyaviy-badiiy jihatdan qayta baholash boshlanadi, shunday talqinga ehtiyoj seziladi.

Tarixiy shaxslar xarakteridagi ibratli qirralarni tadqiq etish, avvalo, g`oyat ta`sirchan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, tarixiy voqeа hamda buyuk shaxslardagi ijobiy qirralar davrlar sinovidan o`tgan, barcha zamonu makonlar uchun mushtarak bo`lgan qandaydir o`ziga xos ma`naviy ruhiy kamolot yo`lidagi mezonlardir.

- Buyuk tarixiy shaxslar talqini va tadqiqi nisbatan keng va rang-barang g`oyaviy-estetik hodisa bo`lib, u faqat muayyan shaxs xarakteridagi ibratomuz xususiyatlar vositasida o`quvchilarni tarbiyalashgagina xizmat qilib qolmay, balki, u muayyan xalqning o`z tarixi, madaniyatiga bo`lgan munosabati, undagi vatanparvarlik tuyg`usining nechog`li darajada ekanligini ham ko`rsatadi.

O`zbek xalqi o`zining sevikli farzandi Alisher Navoiy haqida asrlar davomida ko`plab hikoyalar, latifa, mutoyibalar yaratdi, shoirlar o`z ustozlariga bo`lgan mehrlarini she`rlarida tarannum etishdi, dramaturglar shoir obrazining sahma talqinini yaratdilar. Bulardan tashqari Alisher Navoiy haqida turli xalqlar yozma va og`zaki adabiyotlarida ham qator hikoya va qissalar, latifa va dostonlar yaratilgan. SHarq xalqlari

folklori va yozma adabiyotlarida buyuk mutafakkir haqida bitilgan she'riy satrlar hamda tarixiy-badiiy qaydlar hisobga olinadigan bo`lsa, navoiy nomaning shakli shamoyili, g`oyaviy-poetik mundarijasi yana ham keng ko`lam kasb etadi.

Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasida buyuk mutaffakkir, shoir va davlat arbobi Alishep Navoiy siymosi gavdalantiriladi. Asarning dastlabki «Yoshlik ayyomining ilk bahori» nomli qismida Alisherning bolalik yillaridagi hayotiy voqealar hikoya qilinadi. Endigina to`rt yoshga kirgan Alisherning kitobga bo`lgan mehrini, kitobni varaqlab, suratini ko`rib o`tirgani haqida so`z boradi. Shunda otasining ko`ngliga: - Shul yoshdin kitobga muzaabbat qo`ysa, ulg`aygach, albatta, kitobni ilkidan ayirmay o`zi bilan asrab yurgay, degan fikr keladi.<sup>39</sup>

Asarda Alisherning tog`alari Mirsayid Qobuliy va Muhammad Ali G`aribiylar haqida ham ma'lumotlar beriladi. Ularning forsiy va turkiy tilda she'r yozishlari, pochchasi G`iyosiddinnikiga tez-tez kelib turishlari, ular kelganida ilmiy va adabiy mavzularda qizg`in bahslar, g`azalxonliklar bo`lib turishi haqida yoziladi. Mana shunday kunlarning birida kichkina Alisher hayotidan olingan tarixiy voqeа qalamga olinadi. Ya'ni otasi Alisherga shoir Qosim Anvarning she'rini o`qib berishini so`raydi. To`rt yoshli Alesher fors-tojik tilida yozilgan g`azal matla'ini ifodali qilib o`qib beradi va tog`alarini hayratda qoldiradi. SHuningdek, mazkur qismda Alisherning kichkina Husayn bilan maktabga birga borganlari, shahar tashqarisiga chiqib bolalar bilan o`q otish uynlarini o`ynaganliklari haqida ham ma'lumot beriladi.

Alisher Husayn bilan yoshlik chog`laridan boshlab qalin do`s, u bilan birga savodini chiqargan, shu sababdan ham uning shoh bo`lishidan xursand, bu yo`lda unga ko`maklashishga, uni quvvatlashga

---

<sup>39</sup>Осим. М. «Карвон йўлларида. Ф.Фулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил, 208-бет.

tayyor. Asar davomida ham Husayn Boyqaroni to`g`ri yo`lga solishga, unga mslahatlar berishga harakat qilayotgan haqiqiy timsolini ko`z oldimizga keltiramiz. Bu asli hayot haqiqati bo`lib to`laligicha qissadan o`rin olgan.

Qissaning «Yazd cho`li» nomli qismida Alisher hayotida sodir bo`lgan ba`zi bir tarixiy voqealar, o`sha vaqtdagi siyosiy tanglik, Alisherlar oilasining boshqa shaharlarga safari kabilar bayon etilgan. Mashaqqatdagi siyosiy tanglik Alisher Navoiylar oilasiga ham o`z ta`sirini o`tkazadi. Temurning o`g`li podshoh Shohruhning o`limidan keyin Temurning nevara-evaralari bir-birlari bilan g`ajillashib, xalqning qonini suvdek to`ka boshladilar. Ulug`bekning o`g`li Abdullatif askar to`plab, o`ziga teskari bo`lgan amaldorlardan ko`pining kallasini kestirdi, o`z buvisi Gavharshodni zindonga soldirdi. Boysunqurning o`g`li Abulqosim Bobur esa o`z akasi Sulton Muhammad bilan urusha boshladi. Shu sababli G`iyosiddin Kichkina Xurosandan ko`chib ketishga ahd qildi. Ularning oilasi G`arbiy Eronga ko`chib ketishdi. Karvon bir necha kun Yazd cho`lidan yurishiga to`g`ri keldi.

Yazd vohasida kichkina Alisher ulug` tarixchi Sharafidin Ali Yazdiy bilan uchrashdi Mana shu uchrashuvda Alisherning aqli va zukko bola ekanligi, xuddi kattalardek fikr yuritishi aniq ko`zga tashlanadi. Chol Alisherdan: «Qaydin keldinglar?- deb so`raganida, -Hirotdin Iroqqa ko`chib ketayotirmiz»<sup>40</sup> - deb javob beradi.

Chol nimaga ko`chib ketayotganliklarini so`raganida: - Ie, gapdan xabaringiz yo`qmi? Xurosonda urush boshlanib ketdi-ku? Podshohzodalar bir-birlarining kallasini kesmoqda, yurtni talamoqda, mundog` zamonda...<sup>41</sup> - deb javob beradi. Chol Alisher bilan bir oz gaplashgandan keyin uning uchun fotiha o`qiydi. Alisher o`sha vaqtda o`zi bilan suhbatlashgan bu keksaning buyuk tarixi Sharafiddin Ali Yazdiy ekanligini keyinroq biladi. Alisherlar oilasi G`arbiy Eronda uch yilga turib,

<sup>40</sup> .М.Осимнинг «Карвон йўллари». 218-бет.

<sup>41</sup>. Ўша асап 218-бет.

yana Hirotga. qaytadi. Bu vaqtida Abulqosim Bobur o`z akasi Sulton Muhammadni o`ldirib, poytaxtni egallagan, mamlakatda tinchlik o`rnatgan edi. Yozuvchi mana shu qismda yosh Alisherni keksa kishi bo`lgan buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashtirib, uning fotihasini olishdi ham qandaydir ilohiy qudrat borligini ham sezish mumkin.

Asarning «Qushlar tili» deb nomlanadigan qismi Alisherning maktabda o`qib yurgan vaqtлari, bo`lg`usi shoh Husayn Boyqaro bilan mактабdoshlik va do`stlik munosabatlari tasvirlanadi. Asardan shu narsa ma'lum bo`ladiki, Alisher maktabda o`qib yurgan vaqtlarida uning fikru xayolini Farididdun Attorning «Mantiq ut-tayr» kitobi o`g`irlaganligi ma'lum bo`ladi.

U maktabda domlaning sabog`ini tezda o`zlashtirib olib, qolgan vaqtni «Mantiq ut-tayr»ni o`qishi bilan o`tkazadi. Alisherning bolalik yillari haqidagi bu tarixiy haqiqatni yozuvchi qissada haqqonii as ettira olgan. Asarda Alisher bilan Husayn Boyqaro o`rtasidagi suhbat orqali bo`lg`usi shoh o`rtasidagi katta farqni ham ko`ra olish mumkin. - Asru ajoyib kitob-da. O`qimayman desam ham o`qigim kela beradur. Qushlar haqidagi hikoyalar fikru xayolimni chulg`ab olg`an. Boshqa kitoblarga hushim yo`q.

- Men Sa'diyning «Guliston»ini afzal ko`rurmen. Ko`p bama'ni va ibratomuz hikoyalar bor, - dedi Husayn dimog` bilan, - har qalay «Mantiq-ut tayr»dan o`lsa, o`ligi ortiq.<sup>42</sup> Alisher bilan Husayn suhbatni davom ettirishganida, Husaynga ravshan, sodda hikoyalarning yoqishi ma'lum bo`ladi.

- Husayn bilan Alisher juda qalin do`s<sup>t</sup> bo`lishadi. Shuning uchun ham ular bir-birlaridan sirlarini ham yashirmsandan suhbat qurishadi. Husayn Alisherga juda ko`p marotaba «Agar men yurtga podsho bo`lsam, seni o`zimga

<sup>42</sup> М.Осимнинг «Карвон йўллари». 215-бет.

vazir qilib olaman”, - der edi. Husaynning bu niyati haqiqatan ham amalga oshdiki, u mamlakatga shoh bo`lganida do`sti Alisherni o`ziga vazir qilib tayinladi. Tarixdan shu narsa ma’lumki, Alisher «Qushlar tili»ga qiziqib ketganigi bois, undan kitobni tortib olib qo`yadilar. Asarning mana shu qismida ham shu tarixiy haqiqat haqqoniy keltiriladi.

Alisher mакtabda ham uyda ham «Qushlar tili» kitobini qo`lidan qo`ymaydi. Bundan ota-onasi ham, ustozlari ham xavotirlanadilar. Unga otasi: - “Qani o`g`lim, nima o`qiyotirsiz?” - deb so`raganida: Men “Yosin”ni yodlamoqdamen va savodim ravon bo`lsin”, - deb «Mantiq-ut tayr”ni o`qimoqdaman. Xavotirdamanki, siz sabog`ingizni takrorlamay, doim bu kitobni yodlar va maktabdin ozod bo`lg`ondin so`ng ham do`sstlarining bila o`ynamay, har go`shada qushlar so`zini aytib, o`z - o`zingiz bila gaplashar va kulib qo`yar emishsiz. Bu kitob sizni jinni qilib qo`ymasaydi.

- Otajon, mening to`g`rimdagи har xil bo`lmag`ur gaplarga quloq sola bermang, es-hushim joyida, Qo`rqmang jinni bo`lmaymen.<sup>43</sup> Bu kitobni baribir Alisherdan yashirib olib qo`ydilar. Shunda u juda qattiq xafa bo`ladi va kitobdagи so`zlarni takrorlay boshlaydi. Nixoyat, butun kitobni ko`ngliga yod bo`lib qolganini payqab o`zida yo`q xursand bo`ladi.

Asarning «Yigitlik faslining tikanli gullari» qismida podsho Abulqosim Boburga ham katta tavsif berilganligini ko`rishimiz mumkin. «Lunji osilgan, bodomqovoq, qiyiq ko`z podshoh oldi ochib qo`yilagn ipak chodir ichidagi taxt ustida o`tirib, payklar qo`lidan ustma-ust sharob ichardi. Sharobxo`r, engiltabiat, ishratboz Abulqosim tabiblarning man etishlariga qaramay, ichkilikni sira qo`ymas, xalqdan

---

<sup>43</sup> 1. Осим М. Карвон йўлларида”. 223-бет.

tushgan soliqning ko`pini ziyoftatlarga sarf etar edi.»<sup>44</sup>

Bu vaqtida Navoiy 16 yoshda bo`lib do`sni Husayn Boyqaro bilan birga uning xizmatiga kirgan edi. Podsho qaerga borsa, Navoiy va Boyqaro ham uning mulozimlari bilan birga orqasidan ergashib yurishar edi. Ana shunday ziyoftatlarning biridan keyin podsho Abulqosim Boburning ahvoli og`irlashib qoldi. Oradan ikki kun o`tgach, podsho olamdan o`tdi. Uning sarkardalari, mingboshi va yuzboshilari taxtga da`vogar bo`lgan shahzodalar orasidan o`zlariga homiy izlay boshladilar.

Husayn Boyqaro ham bu lochinlardan bir nechtasini o`z tomoniga og`dirib oldi va safarga chiqishga taraddud ko`ra boshladi. SHunda Husayn Navoiyni ham o`zi bilan borishga taklif qildi: - Men qazoqliqqa chiqib keturmen, - dedi Husayn xipcha belidagi kamarga qilich-qinini osar ekan. - Yuring men bilan Simurg` qushini izlamoqqa! Navoiy Husaynning taklifini rad etdi va madrasada o`qimoq niyatida ekanligini aytdi. Asardagi mana shu lavhadan ham ko`rinib turibdiki Husayn Boyqaroda o`sha vaqtlardanoq toji -taxtni egallash uchun jonini fido qilishga tayyor shaxs ekanligi ma'lum bo`ladi.

Asarda xuddi shu yoshdagi Husaynda mavjud bo`lgan shijoat, g`ayrat va o`ziga bo`lgan ishonchni uning butun umri davomida kuzatamiz. Husayn Boyqarodan temuriylar sultanatini egallash maqsadi, bu yo`ldagi kurashlarni ham tarix to`g`ri baholaydi. Chunki Husayn Boyqaro maqsadini amalga oshirish uchun faqat kurashadi. U shohlik supasiga o`tirganida ham atrofiga ishonchli beklar, vazirlarni to`plashga harakat qiladi. Ayniqsa, u do`sni Alisher Navoiyni unutmeydi.

Keyingi vaqtarda tarixiy asarlarda aks ettrilgan shohlar, beklar, vazirlarni ideallashtirishga moyillik kuchayib bormoqda degan fikrlar mavjud. Bu fikrni Husayn Boyqaro shaxsi haqida ham aytish mumkin.

---

<sup>44</sup>М.Осим. «Карвон йўлларида», 221-бет.

Lekin, yana shuni aytib o`tish joizki, har bir ulug` daho tarixiy rivojlanish qonuniyatining, tarixiy sharoit jarayonining mevasi sifatida maydoga keladi. Undan tashqari u mashaqqatli va og`ir mehnat tufayli buniyodga chiqadi. Eng muhimi omillardan yana biri iste'dod sohibi bo`lish. Bu sifatlar insonda mavjud bo`lmasa, o`nlab shohlar ham hech narsa qila olmaydi, uni amalga oshira olmaydi. M.Osimning bu asarida Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy munosabatlari, har ikki shaxsning ham o`ziga xos xarakterlari ochib berilgan deb aytish mumkin.

Tarixga zamonaviy yondashish (ularni) tarixiy shaxslarni o`sha davrning g`oyalari va qahramonlarining faoliyatini, taqdirlarini ideallashtirish balosidan saqlab qoladi. Ma'lumki, hech bir kishi zolim yoki razil, johil va rahmsiz bo`lib tug`ilmaydi. Ijtimoiy tuzum, turmush tarzi insonlarning qalbini mayib qiladi, ongini zaharlaydi, ularni boy va zolimlarga aylantiradi.

Yozuvchi qissaning “Yaxshining sharofati” qismida Alisherni Sulton Hasanbek ismli kishini uyida mulozim bo`lib ishlaganligini tilga oladi. Chunki bu vaqtida Alisherning moliyaviy ahvoli unchalik yaxshi bo`lmay biron ish bilan shug`ullanishi zarur edi. Navoiyning bu ahvoldidan shoir Hasan Ardashev xabardor bo`lganligi uchun uni ishga joylab qo`yadi».

Mulozim yoki navkar xizmatkorlik lavozimidan bir pog`ona baland bo`lib, u bek bilan xizmatkorlar o`rtasida turadi, xo`jaiinning buyruqlarini xizmatkorlarga etkazadi, dasturxon yozib, xo`jayin oldiga ovqat qo`yadi, u bilan birga o`tirib ovqatlanadi, suhbat quradi. Bundan tashqari Navoiy jangovar bek bilan safarda qiyinchiliklarini baham ko`rishga majbur bo`ladi. Mana shunday kunlarning birida Husayn Boyqaro Xorazmda kuch to`plab, Xurosonga hujum qilib turar edi. Uning bir to`da askarlari Jah-Jah degan joydagi jangda mag`lub bo`lib qochib qutuladi, bir qismi asar tushadi. O`sha vaqtning odatiga ko`ra asirlarni askarboshlar va navkarlarga ikkitadan-uchtadan bo`lib berilar,

ular bu asirlarning kallalarini olib, o`z hukmdorlariga yuborar edilar.

Abu Saidning yosh askarboshlaridan bo`lgan Mirzobek Sulton Hasanbekning o`g`li edi. Uning huzuriga ham ikki asirni keltirib berishganida, Navoiy bu asirlarning hayotini saqlab qolishni so`raydi. Bu qiyin vaziyatdan uni chiqarish yo`llarini axtaradi.

Ikki asir yigitning boshi o`rniga jangda halok bo`lgag` boshqa yigitlarning kalalari hukmdorga jo`natiladi. Keyinchalik mamlakatga Husayn Boyqaro shoh bo`lganida Navoiy bu yigitlardan birini uchratadi. U Navoiyga o`z minnatdorchiligini bildiradi.

Asarning «Badarg`a» nomli qismida shoh Abu Said Navoiyni o`z huzuriga chaqiradi. Uning shayxlar haqidagi g`azalidan ikki baytini o`qib eshittiradi. Ikkinci qatorda bitilgan “aytkim” so`zini “it kabi» deb o`qiydi. Shunda Navoiy so`zni xattot noto`g`ri bitganligini aytadi. Baribir, shoh Navoiyga bu g`azalnn g`arazg`o`ylik va yomon niyat bilan yozilganligini uqtiradi. Shoh Abu Said baribir Navoiyni Badaxshonda qolishini xavfli hisoblaydi. Chunki buning bir nechta sabablari bor edi. Shoирни Samarqandga jo`natishga shoh «farmoni oliy» beradi.

Asarning «Samarqand bo`sag`alarida» deb nomlangan qismida Alisher Navoiyning hayotida juda katta o`zgarishlar sodir bo`lganligini kuzatish mumkin. Navoiy Samarqandga Ahmad Hojibek bilan birga keladi. Navoiyni Samarqand kulib qarshi oladi. Yozuvchi bu haqida asarda shunday yozadi: «Koshinlari oftobda yarqiragan madrasalar nurdan uning oyog`iga poyyandoz solayotganga o`xshardi. Samarqand tuprog`iga oyoq bosishi, ajoyib joy va madrasalarni ko`rishi bilan Navoiyning ko`ngli ko`tarilib, tashvishlari unutilganday bo`ldi». <sup>45</sup>

Samarqandda Xoja Fayzullo Abullays Alishir Navoiyni ochiq yuz bilan qarshi olib, madrasaga qabul qiladi. Navoiy madrasada arab tili, falsafa, mantiq ilmini o`rgana boshlaydi. Yonidagi hujrada turivchi andijonlik ikki yigit Yusuf Safoyi va Yusuf Andijoniylar bilan do`stona munosabatda

<sup>45</sup> . М. «Карвон йўлларида» 224-бет

bo`ladi.

Alisher Navoiy Samarcanda bo`lgan kunlarini juda baxtli o`tkazdi. U andijonlik madrasadoshlari bilan Ulug`bek rasadxonasini borib ko`rdi. U Samarcand madrasalari, hujralarining koshinkor peshtoqlari, minoralarini ko`rib quvondi, ko`nglidagi g`am-anduhlar bir oz ko`tarilgandek bo`ldi.

Qissaning «Xuroson sari» deb nomlangan qismida mamlakatlardagi siyosiy ahvol, shoh va beklar o`rtasidagi munosabat masalasiga birmuncha oydinlik kiritiladi. Masalan, shoh Abu Saidning Samarcanda hokim bo`lib turgan to`ng`ich o`g`li Sulton Ahmad otasidek shijoatli emas, dangasa, mayxo`r va nodon ekanligi, Movarounnahrdek ulug` diyorni idora qilishga aqli etmasligi haqida, idora ishlarini tog`asi Darvishali Muhammad tarxon va Ahmad Hojibek, amakisi pahlavon Jonibek Do`ldoy qo`liga topshirib quyganligi haqida yozadi.

Abu Said o`g`liga yorliq jo`natib, G`arbiy Eronga-Ozarbajonga qo`shin tortib ketayotganini va darhol qo`shin bilan Xurosonga etib borishni buyuradi. Mana shu vaqtida mamlakatda G`arbiy Eron va Xurosonda o`g`lining bozori qizib, Samarcand va Hirotni ikki changalida Abu Said ushlab turar edi. Abu Said Ozarbjon paytaxti Tabrizga ham chang soldi, ammo hukmdor Hasanbegi uning ko`shinini tor -mor qilib, o`zini o`ddirdi. Bu vaqtida Husayn Boyqaro Qaroqush dashtida ikki riqibning olishishini yaqindan kuzatib turgan edi. Fursatdan foydalanib u tezlik bilan Xurosonga bostirib kirdi va taxtni egalladi. Abu Saidning o`g`li Sultonı Ahmad endi Amudaryodan o`tgan edi. Husayn Boyqaroning zafarini eshitib u Movarounnahrga qaytishga majbur bo`ldi. Sulton Ahmad bilan birga Ahmad Hojibek va Navoiy ham birga kelayotgan edilar. Shu vaqtida Ahmad Hojibek Navoiyga ruxsat berib, uni ozod ekanligini va ona shahri Hirotna ketishi mumkinligini aytadi.

Navoiy Hirotg'a etib kelgan kuniyoq do'sti Husayn Boyqaroni zafar bilan qutladi va unga atab yozilgan «Qasidayi hiloliya»ni o'qib berdi.

Husayn Boyqaro bundan behad zavqlandi va do'sti Alisherga beklik unvonini berib, mol davlat ishlarini topshirmoqchi bo`ldi. Lekin Navoiy do'stining bu samimiy taklifini qabul qilmadi. Uni boshqalar: «tayyor oshga bakavul» bo`lib kelibdi deyishlarini xohlamadi. Shundan keyin podshoh uni muhrdorlik lavozimiga tayinladi.

Navoiy birinchi kundanoq unga qimmatli maslahatlar berishga harakat qiladi. Husajy Boyqaroning doimo yonida yurgan va mamlakatni qo`lga olishida katta hissa qo`shgan Muzaffar barlosni nufuzliroq lavozimga - Balx qal'asiga dorug`a qilib yuborishni taklif qiladi. Bu bilan u Muzaffar barlosni o`ziga bo`lgan adovatidan ham qutuladi va podshohdan ham, o`zidan ham uzoqlashtiradi.

Ma'lumki, Navoiy haqida juda ko`p tarixiy asarlar yaratishgan. Izzat Sulton va Uyg'unning «Alisher Navoiy» dramasida ham Navoiyning haqiqatan ham xalq tinchligi, osoyishtaligi, obod hayoti, baxti uchun jon olib, jon bergen doho sifatida gavdalanganligini ko`ramiz. «Alisher Navoiy» dramasida shoirning insonparvarlik g`oyalari uning har bir xatti-harakatida, qiliqlarida, ijodi yo`nalishida, insonlarga bo`lgan munosabatida, tevarak-atrofdagi yuz bergen voqeа-hodisalarga qarashlarida yaqqol namayon bo`lib boradi.

Mirkarim Osimning asarida ham xuddi mana shu insonparvarlik g`oyalari mujassamlashtirilgan. Lekin Mirkarim Osim yaratgan Alisher Navoiy siymosi misolida Navoiyni bolalik, o`smirlik, o`rta yoshlik yillarida ham keksa donishmandlardek zukko va bilimli inson sifatida ko`pamiz.

Asarning «Astrobod» deb nomlangan qismida Navoiyning Astrobodga hokim qilib yuborishira u erdag'i mamlakat obodonligi uchun olib borgan ishlari bayon etiladi.

Navoiy Dimovand tog`ining etagida yastanib yotgan juda obod,

karvansaroylari va do`konlari bisyor bo`lgan Astrobodga yo`l oldi. Astrobod xalqi Navoiyni zo`r tantana va ochiq chehra bilan kutib oldi. Astrobodning aholisi kurd, fors, ozarbjon va turkmanlardan iborat edi. Turli xil mallatga mansub bo`lgan aholini boshini qovushtirish, ularning arz-dodini tinglab, tutayotgan yo`llarini to`g`ri baholash, dehqonlarga yordam berish, nohaqliklarga barham berish kabi ishlarni Navoiydek aqli, tadbirkor va haqqoniy insonning ko`lidangina kelishi mumkin edi.

Navoiy dunyoqarashidagi, uning insonparvarligidagi bosh masalalardan biri ham uning hokimyatga va shohga munosabati masalasi edi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan o`qigan, yoshlikdan do`s, shu sababdan ham uni shoh bo`lishidan xursand, bu yo`lda unga yordam bergen, quvvatlagan edi. Adolatli shohga erishdek deb quvonchini ichiga sig`dira olmagan Navoiy bu yo`lda yanglish o`ylaganligini keyinroq anglab etadi.

Navoiy Husayn Boyqaroni bu yo`ldan qaytarishga harakat qildi. Lekini Husayn ba`zi bir bek va vazirlarning gapiga kirib, do`sti Navoiyga quloq solmadi. Husayn Boyqaroning ko`zini g`aflat pardasi to`sdi. Bundan uning beklari, mirzalari va bakovullari o`z manfaatlari yo`lida foydalandilar. Asarda Muhammad Chinor ismli mirzaning noma`qulchiliklari, haddidan oshgan bakovul Mirhoji Pirning erkaliklari Navoiyning oqilonqa xatti-harakatlari orqali oshkor etiladi. Mirkarim Osim asarda Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiyga bo`lgan munosabati ham haqqoniy ochib berilgan.

Qissaning «Xuroson zulmat qo`ynida» qismida mamlakatdagi siyosiy ahvolning yanada qizg`in tusga kirayotganligi ma`lum bo`ladi. Sulton Husaynning to`ng`ich o`g`li Badmuzzamon Balx shahrida hokim bo`lib turgan vaqtida isyon ko`tardi. Husayn kichik xotinidan bo`lgan Muzaffar Mirzoni Astrobodga hokim bo`lishini istagan edi. Lekin, Badmuzzamon o`gay ukasiga Astrobodni berishni xohlamas edi. Badmuzzamon Astrobodda

qolgan o`g`li Mo`min Mirzoga chopar yuborib, Astrobodni bermasligini, qurol bilan qarshilik ko`rsatish kerakligini uqtiradi.

Urush jiddiy tusga kirdi. Husayn Boyqaro Balx ustiga, Muzaffar Mirzo Astrobod ustiga yurish qildi. Askari ko`p va tajribali Husayn Bayqaro Balx shahrini qamal etib, uni jang bilan ishg`ol qildi. Astrobod ham zabt etilib. Mo`min Mirzo asir qilib olindi. Shoh Husayn barcha hukmdorlarga xos davlatni saqlab qolish uchun o`z farzandlariga ham qurol bilan qarshi chiqdi. O`n ikki yoshli nabirasi Mo`min Mirzoning o`limiga ham sababchi bo`ldi.

#### **1.4. Alisher Navoiy obrazi.**

Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasining bosh qahramoni - buyuk vaadolatparvar inson Alisher Navoiydir. Asarda Navoiyni xalq tinchligi, osoyishtaligi, obod hayoti, baxti uchun jon olib, jon berib kurashgan daho sifatida gavdalanadi. Navoiyi - insonparvar shaxs. Uning insonparvarlik - g`oyalari uning har bir xatti-harakatida, ijodida, insonlarga bo`lgan munosabatida, tevarak atrofdagi yuz bergan voqeа - hodisalarga qarashlarida yaqqol namayon bo`lib boradi.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, Navoiyni o`ziga do`s bilgan, uning aqlu - zakovatiga tan bergen Husayn do`stini vazir qilib tayinlagan. Alisher Navoiy vazirlik vaqtida o`z davrining moddiy jihatdan o`ziga to`q va etarli shaxslaridan, uning atrofdagi talaygina g`allakor erlar, ekinzorlar, do`konlar bog` - rog`lar podshoh tomonidan hujjatlashtirib berilgan, ba`zilarini Navoiy o`zi sotib olgan edi. Navoiy bu erlardan katta daromad olgan. Lekin bu erlardan olgan daromadini ham xalq va mamlakati uchun sarf qilgan.

Tarixchi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida keltirilishicha Navoiy o`z davrining katta muldori bo`lgan. Xondamir Navoiyning mamlakatdagi 40 rabotni ta`mir etganini yozadi va ularning nomlarini keltiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Navoiyning qog`oz ishlab chiqarish korxonasi (“qog`oz juvozi”) bo`lganini yozadi.

Navoiy ishlab chiqarilgan qog`ozning ortiqcha qismini sotganligi va bundan daromad qilganligi tabiiy. Navoiyning bir kunlik o`rtacha daromadi, olimlar hisobicha, minglab tillani tashkil etgan.

Navoiy o`z yerlarida ishlovchilarga umumiy ko`rsatmalar berish bilan cheklanmagan. Xususan, dehqonchilik masalalari bilan astoydil, ishning ko`zini bilib shug`ullangan. Uning bu ishlarini Husayn Boyqaro ma'qullaganligini shoir “Vaqfiya” asarida ta'kidlab o`tadi. Navoiy qaerni qo`lga kirlitsa, o`sha erni obod qilishga harakat qilgan, binolar qurban, bog` - rog`lar bino qilgan.

Navoiyning saxovati, oliyjanobligi shundaki, barcha mulklardan keladigan daromadlardan “oddiy bir odamning tirikchiligi o`tmag`iga etarli qismini olib qolib, qolgan qismini xalq va mamlakat ehtiyojlariga, turli - tuman binolar qurilishiga sarf qilgan, ilm-fan, sa`at ahliga, beva-bechoralarga baxshida qilgan, Xondamirning ta'kidlashicha, har yili 2 mingga yaqin po`stin, chakmon, kiyim - kechaklar” beva-bechoralarga tarqatilgan».

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, ulug` shoir va davlat arbobi Navoiy biz uchun faqat o`chmas she`rlar va nasriy asarlari bilangina emas, balki o`z mazmunkor faoliyati, tadbirkorligi bilan ham o`rnak bo`lgan.

Yozuvchi Mirkarim Osim asarda yuqoridagi mana shu tarixiy haqiqatni Navoiyning xatti-harakatlari orqali ifodalashga harakat qilgan.

Yozuvchi asarning “Astrobod” deb nomlangan qismida Navoiyning xalqqa qilgan g`amxo`rligi va e'tiborini hikoya qaladi. O`zidan oldin viloyat hokimi bo`lgan Mo`g`ilbek zulmidan xalqni ozod qiladi.

Astroboddaadolat o`rnatadi. Ayniqsa, Maryamobodkenti jamoasi dehqonlari nomidan ariza bilan kelgan O`g`onberdi timsolida ochiqko`ngil, ishonuvchan, sodda qishloqlik yigitning arizasini sinchiklab o`rganib chiqadi. U adolatsizlikka hech chidamas edi. Xalqqa zulm qiluvchi amaldorlarni ko`rarga ko`zi yo`q edi.

Navoiy shu voqeа munosabati bilan adolatsiz, amaldorlardan

Ahmadali bilan Muhsinbekni ishdan bo`shatdi, mol-mulkini musodara qildi, yalang`och badaniga o`n besh tayoq urdirdi. Mamlakatda hukm surayotgan zulm-vahshat daryosini o`z sohiliga qaytarish mumkin emasligini Navoiy yaxshi bilardi. Lekin qo`lidan kelganicha mehnat ahliga yordam qilar, ularning zulm yukini engillashtirishga bor kuchi bilan urinardi. Oddiy xalq uning bu niyatini payqar va har qadamda unga minnatdorchilik bildirardilar.

Mirkarim Osimning bu asaridagi Navoiy obrazi shoir Navoiy uchun, uning biografiyasini yaratish, uning asarlari haqida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, umuman, ish yo`li bilan uni targ`ib qilish uchun etarli emas edi. Yozuchining ezgu niyati - ulug` insonni ko`rsatish, ya`ni badiiy obrazini yaratish edi.

Muallif asar uchun katta talabchanlik bilan material tanladi, har bir fakt va hujjat, har bir hodisa yoki lavha bosh qahramonni xarakterlashda zarur chizgilar bo`lib xizmat qilgan. Shuni ham aytib o`tish kerakki, Mirkarim Osim barcha asarlarida ham tarix va adabiyot fanining yutuqlariga suyanadi, undan o`ziga ilmiy ozuqa oladi, asarlariga aniq faktlar olib kiradi. Bu tarixiy haqiqatsiz san`atkor ulug` zotlarning badiiy obrazlarini inson ko`zi oldida gavlantirishi amri mahol edi.

Adib yaratgan Navoiyning ulug`ligi shundaki, davrning ijobiy an'analarini, xalqning yaxshi urf-odatlarini, aql-zakovatini o`zida mujassamlashtirgan siymo. U hayotda shunday edi, asarda ham shunday bo`lib ko`rinadi. Muallif yutug`ining asosi ham mana shunda, bosh qahramonning xarakteri va boy ichki olamini ochishga xizmat qilgan asosiy sifatlar uning xalqchilligi va adolatli jamoat arbobligi, buyuk ijodkorligidir. Muallifning yutug`i shundaki, u bosh qahromonni deyarli ideallashtirmaydi, dunyoqarashining shakllanishini, unda ham nuqsonlar bo`lishini, ba`zan gumanistik g`oyalar bilan birga, hukmdor sinf vakili sifatidagi qarashlarini haqqoniyligini ko`rsatishga tuyassar bo`ladi. Navoiyni mehnatkashlar har doim davlatning adolatli, muruvvatli vazir, halol, mehribon jamoat arbobi sifatida biladilar, bu haqiqatni o`z hayotlari timsolida sinovdan o`tkazadilar.

Navoiy o`z davri, o`z sinfining farzandi. U qanchalik donishmand va aqlli hamda iste'dodli bo`lmasin, feodal ijtimoiy muhitning o`g`loni edi. Bu holat uning Husayn Boyqaroga bo`lgan munosabatida ko`rinadi. Husaynga, umuman, hokimlarga hamda zulm masalasiga Navoiyga nisbatan xalq uning ilg`or namoyondalari kengroq hukm yuritganligi tarix haqiqatiga mosdir. O`sha davr tarixchilarining mashg`ulotlariga ko`ra Navoiy bilan Husayn Boyqaro bolalikdan do`sht bo`lsa ham, ularning o`rtasida konflikt mavjudligini yozishadi. Masalan, “Navoiyning ijodi va faoliyatini kuzatib yuring, saroyga etkazib turadigan hufya (josus) qo`yilgan, Astrobodda ulug` shoirni zaharlamoqchi bo`lishgan, bu har ikki riyokorlikdan ham Husayn Boyqaro xabardor bo`lgan ekan».<sup>46</sup>

Navoiy Astrobodda hokimlik qilgan vaqtida Hirotga qaytishni Husayn Boyqarodan so`rab iltimoslar qilgani, lekin uning iltimoslari oqibatsiz qolgani, Alisherga qarshi uyushtirilgan suiqasddan so`ng, Hirotga qaytishga rozilik berilgani ham tarixdan ma'lum. Bu hayotiy faktlar Navoiy ma'lum darajada ulug` shoirning ijodida o`z aksini topadi. Navoiy juda kamtar inson va ijodkor edi. Navoiy ko`p asarlarida ko`yib-pishib, adolatli shohni orzu qiladi. Uning ijodidagi ziddiyat ham mana shunda. Navoiy ko`p asarlarida ko`yib-pishib, adolatli shohni targ`ib qilishi, zolim shohlarning taqdiri fojiali tamom bo`lishini ifoda etishi, albatta, bejiz emas. Shu bilan birga u o`z davrining sohibqironiga imo-ishora qilardi. Bu o`z yo`li bilan bilvosita Husayn Boyqaroni tanqid qilish edi. Bunday tanqidiy qarashlar - shoirning o`z davridagi amaldorlarga, mansabga nafrati edi.

Alisher Navoiy o`zining so`ngi yirik asari “Mahbub-ul qulub”da podsho va amaldorlarga munosabatini quyidagicha bayon qiladi. “Podshohlar dargohidan yiroq va xoqonlar bazmidan uzoq bo`lmoq, balki

---

<sup>46</sup> 1.Х.Абдусаматов. Тарих ва бадиий талкин. - Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995, 27-бет.

atrofiga yaqinlamagan yaxshiroq. Bulardan qochgil. Podshohlar xizmatiga jur'at ko`rsatish o`z hayoti ipini uzishdir va ichishga zahar so`rashdir. Podshohlarga yaqinlikni istash - o`z boshiga balo tiyg`ini yog`dirishdir. Podshohlarning kulishlari chaqaloqqa o`xshaydi: yorug`ligi foydasiz, ammo kuydirishi vujuddan asar qoldirmaydi”.<sup>47</sup> Bu jiddiy masalaga muallif asar davomida ehtiyyotkorlik bilan yondoshishga harakat qiladi.

Adib Navoiyning o`zidan kelib chiqib, vafo qilib jafo ko`rganligini, ulug` dahoning umri oxirlaridagi hokimlarga bag`ishlangan asarlaridan olgan xulosalarga tayandi va Alisherning dilida yashiringan sirlarni aniqlashdan, qalbidak jo`sh urgan his - tuyg`ulardan kelib chiqib Husayn Boyqaroni ta'riflashga urindi.

Masalan, asarning “Xuroson zulmat qo`ynida” qismida Astrobodni olish uchun kurashga otlangan Husayn Boyqaroning o`g`li Badiuzzamon Navoiyning yuzidan o`ta olmasdan, taslim bo`lishga qaror qiladi». Biroq ertasi kuni Navoiy dahshatli bir manzaraga duch keladi. Salom uchun saroyga kelgan Navoiyni Badiuzzamon sovuq qarshi oladi. Badiuzzamon podshoh Husayn tomonidan Balx shahar dorug`asiga yuborishgan maxfiy farmonni uzatadi. Maktubda shunday so`zlar yozilgan edi: shahar boshlig`iga, “Badiuzzamon o`z navkarlari bilan ovga chiqqanda, shahar darvozalarini mahkam berkitib oling, uni shaharga kirgizmang”. Navoiy sulton Husaynning hiylakor ekanini bilar edi, lekin bunday xiyonat sodir bo`ladi, deb sira o`ylamagan edi.

Asarning “O`lim” deb nomlangan qismida Aleshir Navoiyning eng so`ngi kunlari hikoya qilinadi. Ayniqsa, uning ko`rpa-to`shak qilib yotgan holati, tildan qolgan bemorning arang ko`z ochishi juda ta`sirli lavhalarda chiziladi: “Tildan qolgan bemor ba’zan o`ziga kelib, ko`zlarini arang ochar va sekin: “Oh, oh, oh!”- deb qo`yardi. Ziyrak sohib Doro shoir jismoniy azob chekayotganidan emas, balki ruhan ezilayotganidan,

---

<sup>47</sup>. Алишер Навоий «Танланган асарлар». 15 таси.

mo`ljaldagi ishlari bitmay qolganidan afsuslanib, aziyat chekayotganini ichki bir his bilan sezar, unga qo`shilib o`zi ham uf tortib qo`yar, umri oxirlab qolganida yuz bergen falokatlar Navoiyning yurakbag`rini kuydirayotganini bilar edi”.

Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida quyidagi mazmundagi fikrni ifodalaydi: “Mansabdlarning ishi yel kabi sovurmoq, o`t kabi kuydirmoqda”. Odati qatl etish, har bir tuki - o`lim tamiridir, ular itdan ham tubanroqdir.

Darhaqiqat, Navoiyning bu qarashlari shoh odil, oqil mamlakatga g`amxo`r bo`lish lozimligini targ`ib qiladi. Alisherga ko`p azob berilgan, unga jafo toshlari otilgan, ijodiy fikrlarini bo`g`ib tashlashga urinilgan. Shuning uchun ham u umrining so`nggi kunlarida adolatsizliklar, nohaqliklardan qattiq noliydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiy zulmga qarshi qanchalik kurashmasin, uni enga olmadi, balki zulm uni bosdi, uni bo`g`di. Saroy muhit feodal reaksiyasi uni ezib turdi. Navoiy ko`p xayrli ishlar qildi, ammo uning zamonasi va zamondoshlari, hatto ba`zi do`stlari ham unga jabr qildilar, ranjitedilar. U qilgan yaxshiliklarning evaziga, zamon ahlidin tuhmatlar, bo`htonlar, haqoratlar oldi. Navoiy ularga vafo qildi, ular vafolarga jafo qildilar.

### **1.. Husayn Boyqaro obrazi.**

Ma’lumki, Husayn Boyqaro temuriylar avlodidan bo`lib, jahongirning evarasidir. Temur, Shohrux, Umarshayx sulton va Boyqaro degan farzandlar ko`rgan. Boyqaroning o`g`li Mansurdir. Mansur esa Sulton Husayn Boyqaroning otasidir. Husayn yuqori tabaqa oilasidan kelib chiqib, shu oilada tarbiya ko`radi, shu muhitda xarakteri shakllanadi va mustahkamlanadi. Shu sababdan ham u oliy tabaqaning a'analarini, ya'ni hokimyatni egallash, qanday yo`llar bilan bo`lsa ham uni saqlab qolish, davlatni mustahkamlash, aysh - ishratda yashashni o`zlashtirgan va ularga amal qilgan.

“Husayn Boyqaro Temur avlodining Xuroson o`lkasidan eng so`nggi

podshosi bo`lib, unda 38 yilga hukmronlik qiladi. Husaynning davlat tepasiga chiqishi haqida shunday ma'lumotlar bor. 1468-yilda Xuroson o`lkasining shohi Abusaid G`arbiy Eronni qo`lga kiritish uchun urush boshlaydi. Shu yilning kuzida Sulton Husaynning Hirotna hujumi kutilardi. Shu sababli Abusaidning o`g`li Sulton Ahmad Hirotni qo`riqlash niyatida katta qo`shin bilan yo`lga chiqadi. 1469 yilning boshlarida Abusaidning o`limi Husayn uchun Hirotni olishni engilashtiradi.

Harbiy qobilitga ega bo`lgan Boyqaro qattiq va qonli janglarda dushman ustidan g`alaba qozonib, 1469-yilda Hirotna taxtini egallashga muyassar bo`ladi.” U o`z hukmdorligining dastlabki yillarida Navoiyning ta`sirida bo`lib, olimlar, shoirlar va san`atkorlarni to`plab, madaniyatni rivojlantirishga, mamlakatni obod qilish ishlariga e`tibor bergan.

Bir necha yillargacha Hirotni madaniyat, ijod markaziga aylantirish uchun harakat qaladi, fan va san`atning ilg`or ahillari ularning ijobiy fikrlarini quvvatlab turadi, bunga o`zining ulushini ham qo`shib boradi. Husaynning xizmati shundaki, u eski o`zbek adabiy tilini yaratishda Alisherga ko`maklashadi. O`zi ham ijod etib, ona tilida she`rlar yozib, amalda ham tilni mustahkamlashga hissa qo`shadi.

Shu bilan birga, uning manfiy jihatlari ham ko`p edi. Yirik feodal sifatida xalq ommasini ezgan. U borgan sari Navoiy ta`siridan uzoqlashib saroydagi johil amaddorlarning tuzog`iga ilinib boraveradi, aysh-ishratga mukkasidan ketadi. Shunday qilib, Husayn saroydagi reaksiyaning botqog`iga botib ketadi. Shohning xarakteridagi bu fofia ilg`or ishlarni amalga oshirishga, ijobiy kishilarning orzu-niyatlarini ruyobga chiqarishga to`sinqil qiladi. Bu narsa oqibatda ikki do`stni bir-biridan ajratadi. Natijada, Navoiyning ideali xalqning ilg`or g`oyasi bilan reaksiyon kishilar o`rtasidagi kurash keskinlashadi. Husayn Boyqaro boshlang`ich davralarida Alisher tomonida bo`lsa, keyinchalik goh u tomonga, goh bu tomonga o`tib ikkilanib turadi. Husayn va Navoiy o`rtasidagi haqiqiy birodarlik iplari uzila boshlaydi. Lekin shunday bo`lishga qaramasdan, shoirlar Navoiyning xalq ommasi o`rtasidagi juda katta obro`-e`tiborini

nazarga olib, onda-sonda unga ham qulq solib turadi, ayrim iltimoslarini bajo keltiradi. Bu haqiqat XV asrning ikkinchi yarmida o`tgan Xuroson shohining musbat va manfiy jihatlari, tarixiy shaxsiy qiyofasi.

Yozuvchi Mirkarim Osim o`z asarida Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaroning insoniy munosabatlarini ifodalar ekan, tarix haqiqatini buzmaslikka harakat qiladi. Ayniqsa, Navoiyning Astrobodda hokimlik qilgan yillarini tasvirlar ekan, haqiqatni ro`yi-rost ifodalaydi. Navoiy Astrobodga yubormasligini Husayn Boyqaridan so`raydi, lekin Husayn ming xil bahonalar bilan uni Astrobodga jo`natadi. U Astrobodda hokimlik qilgan vaqtlarida ham Hirotg'a qaytishni bir necha mata so`raydi va iltimoslar qiladi, ammo bu urinishlar javobsiz qoladi.

Asarda hikoya qilinishicha, shoirning dushmanlari YAlangto`sh Bakovulni yollab, Navoiyni zaharlamoqchi bo`ladilar. Ularning suhbatini O`g`onberdi eshitib qoladi va Navoiyga yetkazadi. Tarixdan ham shunisi aniqliki, Astrobodda Alisherga qarshi uyushtirilgan suiqaiddan so`ng, Husayn Boyqaro Alisherni Hirotg'a qaytishiga rozilik bergen. Asarda Alisherni zaharlamoqchi bo`lganliklarini Husayn Boyqaroga uning ayg`oqchilari etkazadilar. Bu faktlar Navoiy bilan Husayn Boyqaro o`rtasida konflikt mavjud ekanligidan, shohning shoirga yordami uzoq vaqt to`xtab turganligidan darak beradi.

Ma'lumki, hech bir kishi zolim yoki razil, johil va rahimsiz bo`lib tug`ilmaydi. Ijtimoiy tuzum, turmush tarzi insonlarning qalbini mayib qiladi, ongini zaharlaydi, ularni boy va zolimlarga aylantiradi. Husayn Boyqaroni ham fojiali ahvolga olib kelgan ijtimoiy tuzum, taxtni saqlash uchun urinish edi. Husayn Boyqaroning ijobiy jihatdan olib borgan ba`zi o`zgartirishlarining zamnida shohlik ehtiyojini yotganligi, uning faoliyati hukmdorlik xarakteriga ega ekanligini esdan chiqarib bo`lmaydi. Asarda ko`rsatilganidek, ko`pincha Husayn Boyqaroning tili bilan dili bir-biriga zid ekanligini aniqlanadi. Husayn o`zini Navoiyga juda yaqin, mehribon, sirdoshdek tutmoqchi bo`ladi. Lekin, ko`proq janjallarni bostirish va uning xalq o`rtasidagi mavqeidan foydalanish uchun o`zini yaqin tutadi. Masalan, uning o`g`li Badiuzzamon bilan sulh tuzish

uchun, shahzodani to`g`ri yo`lga solish uchun Navoiydan foydalanadi. SHahzoda Navoiyni qattiq hurmat qilgani uchun uning so`zini qaytara olamaydi. U urushdan va Astroboddan voz kechadi. Biroq ertasi kuniyoq Husayn Boyqaro o`g`liga qarshi qo`shtin tortadi. Bunday ikkiyuzlamachilik, axloqsizlik Husayn Boyqaroning shaxsiy xislatlariga aylanadi. Shu sababdan ham xalq ommasi undan yuzini o`giradi, uning qilmoqchi bo`lgan ishlarida qatnashishdan bosh tortadi. Oqibatda, Husayn Boyqaro xalq nazaridan qoladi, tanholikka qarab yo`l oladi.

Asarda Husayn Boyqaro faqat davlat va jamoat arbobi sifatida ko`rsatilmasdan, uning shaxsiy hayoti, buzuq niyatları ham ochib berilganki, bunday tasvir uning qiyofasini ko`z oldimizda to`la gavdalantirishga imkon beradi. Husayn Boyqaroning qalbida anchagina o`rinni uning ruhiy azoblari egallaydi. Shoh o`z hayotida quvongan, rohatlangan, zavqlangan, jiddiy fikr yuritgan, lekin shu bilan birga azob chekkan, qiynalgan, o`t-olov bo`lib yongan edi. Bunga shafqatsizligi, o`rinsiz qon to`kilishlari, haqsizlik qilishlari sabab bo`lgan.

Asarda Husayn Boyqaro fojiasining shunaqangi ayshu ishratga berilib ketganligini ro`yi-rost ifodalaydi. Navoiy Astrobodda ekanida uning huzuriga kelgan hoji Afzal Husayn Boyqaroning bir ziyofti haqida shunday deydi: - Jo`nashimdan ikki kun oldin Bog`i Zog`onda shundog` katta ziyofat bo`ldiki, Jamshid zamonidan buyon bundog` bazmni hech zot ko`rgan emas. Bog`ning o`rtasidagi marmar hovuz suv o`rniga sharbat bilan to`ldirildi. Xushsurat yigitlar a`yonlarga oltin piyolalarda sharbat va sharob tutar ekanlar, hofizlar sizning g`azallaringizni o`qib xonish qilur erdilar<sup>48</sup>. U borgan sari dushmanchilik kuchaygan, yaqin deb hisoblagan odamlari ham xiyonat qilish yo`liga o`tgan sharoitda yashaydi va harakat qiladi.

Husayn Boyqaroning qattiq mastligidan foydalanib uning xotini

---

<sup>48</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида», - Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил,

Xadichabegin o`z nabirasi o`n ikki yopsh Mo`min Mirzoni o`ldirish haqidagi farmonga qo`l qo`ydirib oladi. Mo`min Mirzo o`sha kecha qatl qilinadi. U shunchalik ayovsiz va kechirimsiz ediki, Navoiyning tog`avachchasi Mirhaydarni ham qatl qildirdi. Bunga Navoiy chidayolmay, uning mozori tepasida: “Davr bevafolari javridin dod! Zamon sitamkorlari zulmidin dod!”- deb yig`lab yubordi”.<sup>49</sup>

Mirkarim Osim asarning oxirgi qismida Navoiyning o`limi kunlarini tasvirlaydi: “Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o`tirdi. Fotihaga kelgan odamlar “aza sohibi” bo`lgan podshoga taziya bildirib, tasalli berar va unga uzoq umr tilar edilar. Qora to`n ustidan belini bog`lab olgan Husayn o`tirgan erida, qo`lidagi dastro`mol bilan ko`z yoshlarini artib, fotihaga kelganlarga minnatdorchilik bildirardi”.<sup>50</sup>

Sulton Husayn Navoiy uyida uch kun aza tutishining maqsadi, u faqat shoirning eng yaqin kishisi bo`lganligi uchun emas, shoirning dang`illama hovlisi, bog`-rog`lari, er-suvsulariga ega bo`lish maqsadi bor edi.

Yozuvchi asarning eng so`nggi qismida Husayn Boyqaroning asl qiyofasini yana aniqroq ochib berishga harakat qiladi: «Navoiyning hovlisini suykli o`g`li Muzaffarga vasiyqa qilib berishni ko`nglidan o`tkazib qo`ygan Husayn Boyqaro marhumning «uchini» juda katta qilib o`tkazishga bel bog`ladi, u ikki yuz ellik qo`y va etmish beshta ot so`ydirib, faqiru fuqoroga osh torttirdi, duoyi fotihadan so`ng, yuragining chigilini yozish uchun taxtiravonga o`tirib, “Bog`i jahon aro”ga yo`l oldi».<sup>51</sup>

Shunday qilib Sulton Husayn Boyqaro yana o`z olamiga qarab yo`l

---

<sup>49</sup>М.Осим. «Карвон йўлларида» Тош. F.Фулом нашриёти, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 329 -бет.

<sup>50</sup> М.Осим. «Карвон йўлларида» Т.: F.Фулом нашриёти, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 331-бет

<sup>51</sup>М.Осим. «Карвон йўлларида». -Тош.F.Фулом нашриёти, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил, 255-бет.

oladi. Yozuvchi buyuk shoir Navoiyni o`limi bilan qissani yakunlashga muvaffaq bo`ladi. Lekin shunday bo`lsa ham, tarixiy manbalarda Husayn Boyqaroni fan-madaniyatning yuksalishida o`z davrining tadbirli hukmdori bo`lganligi ta'kidlanadi:

Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506) davlati o`z tarkibiga Xorazm, Xuroson, Eronning bir qismini olgan bo`lib, u temuriylar tarixida oxirgi yirik davlat arbobi bo`lib qoldi. Uning deyarli 40 yillik hukmronlik davri ham o`zaro kurashlardan xoli bo`lmasa-da, lekin mamlakatda iqsodiy va madaniy hayot yuksak darajada saqlanib qoldi».<sup>52</sup>

O`zbekistonning mustaqil bo`lganiga yigrma besh yil vaqt bo`ldi. Bu vaqt davomida o`zbek diyorida juda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Ayniqsa, xalqimiz orasida tarixni bilishga qiziqish orta boshladи. «Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o`zi tug`ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi». <sup>53</sup>

Darhaqiqat, buni bilish uchun esa tarixga murojaat qilishga to`g`ri keladi. Yozuvchi esa uzoq tarixni bugungi kunda ko`rib turgandek tasvirlaydi. Asarlarida davrning ruhi yaqqol sezilib turadi. Tarixiy kitoblarda etnogenez jarayoni haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. “Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlanadi. O`zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni o`z ichiga oladi. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar, qabilalar xalqlar va elatlarning aralashib ketishi, madaniy an`analarning qo`shilib, yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog`liq bo`lgan”.<sup>54</sup>

Mirkarim Osim tarixiy asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy to`qimaning uyg`unligini ko`ramiz. Yozuvchi birgina «To`maris» asarini yaratish uchun miloddan avvalgi VI-IV asrlardagi O`rta Osiyo tarixiga murojaat qiladi.

Miloddan avvalgi 553-540-330-yillar O`rta Osiyoning tarixiy-madaniy

<sup>52</sup> Ўзбекистон тарихи. «Янги аср авлоди» - Тошкент, 2003, 289-бет.

<sup>53</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент: «Шарқ», 1998, 3-бет

<sup>54</sup> Ўзбекистон тарихи. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2003. 77-бет.

viloyatlari ulkan ahmoniyalar davlati tarkibiga kirar edi.

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Massagetlar qabilalari malika To'maris (Tomiris) boshchiligidagi forslarning turli hiylanayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo'shinini tor-mor etadilar. Malika To'maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda ahmoniyalar hukmdori Kir II ham halok bo`ladi.

Herodotning "Tarix" kitobida xabar berishicha, bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan «janglar orasida eng dahshatlisi edi...

Kamon o`qlari tugagach, qo'l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo'shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat, massagetlar g`alaba qozondilar».<sup>55</sup> Yozuvchi Mirkarim Osim qissada xuddi ana shu voqeani ham hikoya qilib o'tgan. Asar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki massaget qabilalarining boshlig'i bo`lgan To'marisning ayol kishi ekanligi va bu ayol o'z yurtining tinchligi va osoyishtaligi yo`lida ter to`kib mehnat qilishi hikoyaning asosiy g`oyasini tashkil etadi. Ayniqsa, hikoya so`ngida To'marisning: "Ey, Kayxisrav, umr bo`yi jang qilib, odam qoniga to`ymading, mana endi to`yguningcha ich!" - degan so`zlari orqali ayolning qirg`inbarot urushlarga nisbatan nafrati, qonxo'r dushmani qonga botirish haqidagi va'dasiga bo`lgan sadoqati yorqin ifodalangan. To'maris o'z vatanining ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan ajdodlarimizning ma'lum ma'noda umumlashgan obrazidir.

Yozuvchi «Zulmat ichra nur» qissasi orqali XV asrda yashab o'tgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayot yo`li haqida hikoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. To`g`ri, Alisher Navoiy haqida juda ko`p asarlar yaratilgan. Chunonchi, Maqsud Shayxzodaning «O'rtoq Navoiy» (1939), Mirtemirning «O'lmas siymo» (1940), G`afur G`ulomning «Alisher» (1948), Oybekning «Navoiy», Uyg`un va Izzat Sultonining "Alisher Navoiy" dramasi kabi asarlarni sanab o'tishimiz

<sup>55</sup> 2.Геродот.История. Изд-во «Наука»,Ленинград, 1972 год, 79-стр

mumkin. Biroq M.Osimning mazkur qissasi o`ziga xos xususiyatlari, asar mavzusi, g`oyasi, orginalligi bilan ajralib turadi.

M.Osim ushbu qissasida XV asrnint ikkinchi yarmidagi Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy ahvol temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi haqida to`liq ma'lumot beradi. Temuriylar hukmronligi davridagi ilm-fan va madaniy hayotning rivoji, ayniqsa, Alisher Navoiy o`zining vazirlik lavozimini egallangan vaqtłari (1472-1476) mamlakatdagı ahvol haqida ma'lumot olish mumkin. Asardan shu haqiqat ayon bo`ldiki, Alisher Navoiy vazirlik lavozimida bo`lgan yillarida mamlakatda imkon qadar osoyishtalik va adolat o`rnatishga harakat qiladi. Uning sa'y harakatlari samarali o`laroq shaharlar yuksaldi. Astrobodda hokimlik qilgan kezlarida esa adolat hukm surdi. Suvlar chiqarilib, ko`pgina erlar obod qilindi. Navoiy ilm-fan, madaniyat ahliga shaxsan o`zi homiylik qildi. Garchi toju taxt uchun kurashlarda va fitna-nizolar natijasida Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro bilan oralari bir ozsovugan bo`lsa-da, biroq Navoiy umrining oxiriga qadar davlatning tayanch shaxslaridan biri bo`lib qoldi.

Asardagi Sulton Husayn Boyqaro timsoli ham o`ziga xos tarzda tasvirlanadi. Husaynning beg`ubor bolalik yillari, Alisher bilan do`sstligi, taxtga o`tirishi, mamlakatda hukmronlik qilgan davrlari hamda Alisher Navoiy bilan o`rtalaridagi ziddiyatlar haqqoniy ochib beriladi. Husayn Boyqaro Navoiyni o`zining yaqin do`sti deb biladi va unga ishonib vazirlik lavozimini topshiradi. Mamlakatning madaniy ahvolini rivojlantirish, shuningdek, uni obod qilish ishlariga e'tibor beradi. Lekin asarda Husaynning manfiy jihatlarini kengroq o`rinlarda aks ettirilgan, deb aytish joizdir. U yirik feodal sifatida xalqni ezadi, borgan sari Navoiy ta'siridan uzoqlashib, saroydagi johil amaldorlarning tuzog`iga ilinib boraveradi, aysh-ishratga mukkasidan ketadi. Shunday qilib, Husayn saroydagi reakciyaning botqog`iga botib ketadi. Shohning xarakteridagi bu fojea xayrli ishlarni amalga oshirishga, ijobiy kishilarning orzu-niyatlarini

ro`yobga chiqarishga to`sqinlik qiladi. Bu esa oqibatda ikki qadrdon do`stni bir-biridan ajratadi. Natijada, Navoiyning ideali, xalqning ilg`or g`oyasi bilan reakcion kishilar o`rtasidagi kurash keskinlashadi. Husayn Boyqaro shohlikning boshlang`ich davrlarida Alisher tomonida bo`lsa, keyinchalik o`rtada goh u tomonga, goh bu tomonga o`tib, ikkilanib turadi. Natijada Husayn Boyqaro bilan Navoiy o`rtasidagi haqiqiy birodarlik iplari uzila boshlaydi. Lekin shunday bo`lishiga qaramasdan shoh Navoiyning xalq o`rtasidagi juda katta obro`-e'tiborini nazarda tutib, onda-sonda unga ham qulq solib turadi, ayrim iltimoslarini bajo keltiradi.

Xullas, XV asrning ikkinchi yarmida yashab o`tgan Xuroson shohining ijobiyl va salbiy jihatlarini, tarixiy-shaxsiy qiyofasini adib asarda to`la-to`kis yoritib bera olgan.

M.Osim mazkur qissasida o`sha davrni zulmatga o`xshatgan bo`lsa, zulmat ichra yonib turgan bir nurni ilg`ash mumkinligini, bu nur Navoiy ekanligini uqtirmoqchi bo`ldi. Asarning so`nggi qismlarida Navoiyning og`ir ahvoli, o`lim to`shagidagi holati tasvirlanadi. Bu dunyoning zolimlariga nafrati cheksiz ekanligini quyidagi nutqi orqali ifodalanadi: “Davr bevafolari jabridan dod! Zamon sitamkorlari zulmidan dod!”.<sup>56</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, Navoiy zulmga qarshi qanchalik kurashmasin, uni enga olmadi, balki zulm uni bosdi, uni bo`g`di. Saroy muhitini, feodal reaksiyasi uni ezib turdi. Shunday bo`lsa ham Navoiy ko`p xayrli ishlar qildi, ammo uning zamonasi va zamondoshlari, hatto ba'zan do`stlari, ishongan kishilari ham unga jabr qildilar, ranjitedilar. Navoiy ularga vafo qildi, ular esa Navoiyga jafo qildilar.

---

<sup>56</sup> М.Осим. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 17-бет

## **Umumiy xulosalar**

Atoqli tarixnavis adib Mirkarim Osimning nomini bir necha avlod yaxshi taniydi. Chunki yozuvchi asarlari juda ko`p yillardan buyon maktab uchun chiqarilgan darsliklardan o`rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, yozuvchining tarixning qadimgi davrlari haqidagi hikoyalari har qanday yoshdagi o`quvchini qiziqtiradi. «To`maris» qissasida tarixiy haqiqatni saqlab qolgan holda, vatanni himoya qilgan ajdodlarimiz siymosini gavdalantiradi. Massagetlar qabilasining boshlig`i bo`lgan To`marisning tutgan yo`li, qabiladoshlari oldida tutgan obro`-e'tibori, xuddi erkaklardek g`ayrat va shijoati ko`pchilikni lol qoldiradi.

To`maris - mard, jasur va go`zal ayol. Eron shohi uning qo`lini so`raydi. Lekin u xalqining taqdirini, vatanining kelajagini o`ylab bu taklifga rozi bo`lmaydi. Chunki Kayxisravning niyati elini qul qilib, yurtiga egalik qilish edi.

Yozuvchining «Shiroq» qissasida ham vatanparvarlik g`oyalari mujassamlashtirilgan. Shiroqning jasur, mard va botirligi ona yurti va qabiladoshlarining taqdirini birinchi qo`yanligi asarning har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Yozuvchining «Zulmat ichra nur» qissasida XV asrda yashab ijod etgan buyuk shoir, alloma, davlat arbobi va go`zal fazilatlar egasi bo`lgan bobokalonimiz Alisher Navoiyning hayot yo`lini yoritadi.

Asarda Alisherning bolalik davrini yozuvchi mamlakatdagi siyosiy ahvol bilan bog`liq holda tasvirlashga harakat qiladi.

Mamlakat hukmdorlarining toju taxt uchun urushlari, shahzodalarining, aka-ukalarining toju taxt yo`lidagi ayovsiz kurashlari, bu yo`ldagi xunrezliklar hikoya qilinadi.

Qissada tarixiy shaxlar asosiy o`rinni egallaydi. Ayniqsa, Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va vazir Alisher Navoiy o`rtasidagi insoniy munosabatlar yaqqol ochib beriladi.

Tarixiy manbalarda Sulton Husayn Boyqaroga juda yuksak baho beriladi va temuriylar davlatining janubdagagi hukmdori sifatida tan olinadi.

U asarda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni eng yaqin do`st, sirdosh sifatida ko`rsa ham, ba`zi bir amaldorlarning fitnalariga uchib, undan xavfsiraydi. Lekin aksariyat hollarda Husayn Boyqaro Alisherni o`z maslahatgo`yi va do`sti ekanligini tan oladi.

«Zulmat ichra nur» asarining bosh qahramoni - Alisher Navoiy. Navoiy asarda etuk davlat arbobi sifatida gavdalanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy nafaqat davlat arbobi, balki xalqparvar, adolatli rahbar hamdir. U qaerda va qanday mavzuida ishlashidan qat'iy nazar adolat o`rnatishga harakat qildi. Qambag`a, sodda va mehnatkash xalqining ahvoliga achindi, qisman bo`lsa ham adolat o`rnata oldi.

Asarda Alisher Navoiy timsolida yozuvchi ifodalamoqchi bo`lgan nur, davr qiyofasidagi-zulmat kabi qarama-qarshi masalalar ko`tariladiki, bu yozuvchi mahoratining yuksak darajada ekanligini ko`rsatadi.

Umuman olganda, Alishrr Navoiy o`z davrining etuk allomasi sifatida tasvirlandi. Lekin na odamlardan, na Sulton Husayndan shukronalikni ko`radi.

Navoiy hayoti davomida juda ko`p ziddiyatlarga duch keladi. Ba`zan u ishongan odamlar xiyonatkor va dushman bo`lib chiqadi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni ham adolatli, xalqparvar hukmdor bo`lishini xohlaydi. Lekin o`sha davrdagi mamlakatning siyosiy tangligi, sultonni adolatli bo`lishi u yoqda tursin, ota bilan o`g`li o`rtasiga ham sovuq nifoq soladi. Navoiy mana shunday davrda yashaydi. Davrning beshafqatliklaridan faryod chekadi.

Yozuvchining o`rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlari qatoriga «O`tror» qissasini kiritishimiz mumkin. «O`tror» qissasida tarixda mo`g`ullar istilosи deb nomlanuvchi davr, ya`ni Vatanimiz tuprog`iga mo`g`ul bosqinchilarining kirib kelishi, ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi olib borgan mardona kurashi tasvirlanadi. Asarning bosh qahramoni - Inolchiq. U mo`g`ul bosqinchilariga qarshi qahramonona kurash olib boradi. U asarda

xalq lashkarlarining sardori sifatida qisqa va lo`nda fikrlar bayon etilgan. Yozuvchi Inolchiqning har tomonlama o`ziga xos xislatlarini ochib bera olgan. Inolchiq mohir sarkarda va jasur jangchi bo`lish bilan birga juda qiziqqon va sabrsiz inson edi.

Mirkarim Osim «O`tror» qissasini yozishda juda ko`p tarixiy manbalarga suyanadi. Tarixchi Shahobiddin Nasaviyning «Sulton Jaloliddinning hayot yo`li» nomi asaridagi voqeа-hodisalar Mirkarim Osimning qissasiga material rolini o`tagan deb aytish mumkin. Tarixchi O`tror hokimi Inolchiqning qilmishini, ya`ni Chingizdan elchi bo`lib kelgan savdogarlarning hibsga olinib, o`ldirilishini qattiq qoralaydi. Garchi bu tarixiy fakt o`sha davr tarixchisining kundalik hodisaga munosabatini ifodalasa-da, mantiqan asosli emas. Chunki Chingizxonning niyati butun dunyoni o`z imperiyasiga aylantirish, tiz cho`ktirish bo`lib, ertami kechmi uning qo`shinlari Xorazmshohlar mamlakatiga hujum qilishi muqarrar edi.

Asarda mohir sarkarda, o`ta makkor va hiylakor, qonho`r, o`z manfaati yo`lidagi har bir voqeа-hodisaga jiddiy qaraydigan Chingizxon timsoli ham beriladi. Chingizxon dunyoga hukmron bo`lish maqsadida qanchadan qancha yurtlarni vayrona qildi, xalqni qirib tashladi, boyliklarini talon -taroj qildi. Mana shunday yurtlardan biri O`tror shahri edi.

Asar juda ta`sirli va ishonarli yozilgan. Asarda o`trorliklarning kichik mag`lubiyatlaridan tortib eng ulkan fojialarigacha badiiy mantiq asosida chizib berilgan. Adib ana shu mag`lubiyatlarning sabablarini badiiy tadqiq etish bilan kitobxon qalbiga vatanparvarlik tuyg`isini singdiradiki, qissaning hayotiyligi va muvaffaqiyatining siri ham shundadir.

«O`tror» qissasi Mirkarim Osim ijodidagina emas, o`zbek adabiyotidagi tarixiy qissa janrining muhim yututidir. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mirkarim Osim yaratgan tarixiy mavzudagi asarlar xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga madaniyatimiz tarixini, ulug` allomalarimiz hayot yo`lini ko`rsatib berishda beqiyos rol o`ynaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

### **I. I. Siyosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida – Toshkent O`zbekiston, 1997. 327 bet
2. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O`zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi – Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2000.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. – Toshkent: O`zbekiston, 2001.
5. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. Karimov.I.A. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor . – Toshkent: O`zbekiston, 2009.
7. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2009. 173 b.

### **II. Ilmiy adabiyotlar:**

1. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent. 1991.
2. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. – Toshkent: O`zbekiston, 1996.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O`zbekiston. 2002.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1989.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish – Toshkent: Fan. 2007. 227-bet
6. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 262 b.
8. Xudoyerberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Sharq, 2008.

### **III. Badiiy adabiyotlar:**

1. Миркарим О. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
2. Миркарим О. Тўмарис. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
3. Миркарим О. Китобга ихлос. Жайхун устида булутлар. Тарихий

- қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
4. Миркарим О. Жайхун устида булутлар. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
5. Миркарим О. Ўтрор. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
6. Миркарим О. Зулмат ичра нур. Жайхун устида булутлар. Тарихий қиссалар. Т.. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. 272 б.
7. Миркарим О. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 368 б.
8. Миркарим О. Широқ. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 368 б.
9. Миркарим О. Юлдузлар сайри. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 368 б.
10. Миркарим О. Карвон йўлларида. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 368 б.
11. Миркарим О. Хоразм элчиси. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. - 368 б.
12. Миркарим О. Ихлос тузоги. Карвон йўлларида. Тарихий қиссалар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. - 368 б.
13. Karimov N. Normatov U. Adabiyot 5- sinf uchun o'quv qo'llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – Toshkent.: 2004.
14. Boynazarov F. Jahon adabiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. O'zR Oliy va o'rta ta'lif vazirligi. -T.: "Musiqa", 2006.-160b.

#### **IV. INTERNET MA'LUMOTLARI:**

- 4.1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 4.2. <http://www.natlib.uz/>
- 4.3. <http://kutubxona.uz/>
- 4.4. <http://www.adabiyot.uz/>
- 4.5. <http://www.literature.uz/>

NamDU filologiya fakulteti 5120100-o`zbek tili yo`nalishi 401-guruh talabasi Abubakirova Nulufar Abduhakim qizining “Mirkarim Osim – tarixiy asarlar ustasi” mavzisidagi Bitiruv-malakaviy ishiga ilmiy rahbar

## XULOSASI

Mirkarim Osim XX asr o`zbek adabiyotida tarixiy mavzuda eng barakali ijod qilgan adib hisoblanadi. Sobiq sho’rolar mafkurasi xalqimizning shonli tarixini ulug’lash va badiylashtirishga oshkora qarshilik qilmagan bo’lsa ham, lekin rag’batlantirmagan, qo’llab-quvvatlamagan. Mirkarim Osim ana shunday bir paytda o`zbek xalqining shonli tarixiga oid qissa va hikoyalarni yozib, ajodolarimiz hayotini badiiy aks ettirdi. Kitobxonlarni buyuk shaxslar hayoti bilan tanishtirdi. Qarshiliklarga uchradi, ammo o’zining tanlagan yo’lidan qaytmaydi, ijod qilishda davom etdi. Talaba mavzuga oid ma’lumotlardan yaxshi xabardor. Shuning uchun mavzuning dolzarbligini asosli ravishda olib bergen. Umuman, ishning kirish qismi an’anaviy tarzda mazmunli bajarilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning birinchi bobida Yurtboshimiz I. Karimovning adabiyotimizni rivojlantirish sohasida olib borayotgan g’amxo’rligi juda to’g’ri ta’kidlangan. Shuningdek, Mirkarim Osim hayoti va ijodi faoliyatiga oid ma’lumotlar bayon qilingan.

Bitiruv-malakaviy ishning ikkinchi bobida yozuvchining obraz yaratishi bilan bog’liq fikr-mulohazalar bayon etilgan. Adibning To’maris, Shiroq, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Chingizzon, Mashrab kabi tarixiy shaxslarning badiiy timsolini yaratishdagi mahorati tadqiq etilgan.

Ishning uchinchi bobida Mirkarim Osim ijodida qo’llangan o’ziga xos usullar haqida bahs yuritilgan. Talaba ishni yozishda internet ma’lumotlaridan ham foydalangan. Bitiruv-malakaviy ishn natijalari asosida bildirilgan xulosalari ishonarli va asoslidir.

Men, ushbu Bitiruv-malakaviy ishni barcha talablarga rioya qilingan holda yozilgan deb hisoblayman va yakunlangan ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Mo’mjon SULAYMONOV

NamDU o’zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

NamDU filologiya fakulteti 5120100- o'zbek tili yo`nalishi 401-guruh talabasi Abubakirova Nulufar Abduhakim qizining "Mirkarim Osim – tarixiy asarlar ustasi" mavzusidagi Bitiruv-malakaviy ishiga

### TAQRIZ

Mazkur bitiruv-malakaviy ishning mavzusini yoritish maqsadida puxta va izchil reja tuzilgan hamda ish shu reja asosida yozilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning kirish qismi an'anaviy talablarga rioya qilingan holda yozilgan. Mavzuning dolzarbliji ishonchli dalillar asosida ochib berilgan.

Ishning birinchi bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning adabiyot haqidagi kitob va ma'ruzalarining adabiyotimizni rivojlantirish sohasida katta amaliy ahamiyatga egaligini juda to'g'ri ta'kidlangan. Mirkarim Osim hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning ikkinchi bobida Mirkarim Osimning tarixiy asarlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Tarixiy shaxslar obraziga xos xususiyatlarni tahlil qilingan.

Bitiruv-malakaviy ishning uchinchi bobida Mirkarim Osimning obraz yaratish mahorati tadqiq etilgan. Adibning tarixiy shaxslar obrazini yaratishda o'ziga xos uslubi haqida bahs yuritilgan.

Talaba mavzuga oid barcha ma'lumotlari, shuningdek, internet materiallaridan ham unumli foydalangan. Bitiruv-malakaviy ishning natijalari asosida bildirilgan umumiylar xulosalar ishonchli va asosli.

Men ushbu Bitiruv-malakaviy ishning ni barcha talablarga amal qilingan holda bajarilgan va yakunlangan ish deb hisoblayman.

Binobarin, ushbu Bitiruv-malakaviy ishni himoyaga tavsiya etaman hamda ijobiy baholayman.

Shavkatjon ABDURAHMONOV

NamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

NamDU filologiya fakulteti 5120100- o`zbek tili yo`nalishi 401-guruh talabasi Abubakirova Nulufar Abduhakim qizining “Mirkarim Osim – tarixiy asarlar ustasi” mavzusidagi Bitiruv-malakaviy ishiga

### TAQRIZ

Mazkur bitiruv-malakaviy ishning mavzusini yoritish maqsadida puxta va izchil reja tuzilgan hamda ish shu reja asosida vfzmunli va savodli yozilgan.

Ishning kirish qismi an'anaviy talablarga rioya qilingan holda yozilgan bolib, unda mavzuning dolzarbligi ishonchli dalillar asosida ochib berilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning birinchi bobida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning adabiyot haqidagi kitob va ma`ruzalarining adabiyotimizni rivojlantirish sohasida katta amaliy ahamiyatga egaligini juda to`g`ri ta`kidlangan. Shuningek, ushbu bobda Mirkarim Osim hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma`lumotlar berilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning ikkinchi bobida Mirkarim Osimning tarixiy asarlari, xususan, “O`tror” qissasi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Tarixiy shaxslar, masalan, Chigizzon, Mahmud yalovoch obraziga xos xususiyatlarni tahlil qilingan. Bu bobda vatanpfrvar ayollar obrazi to`g`risida ham fikr yuritilgan.

Ishning uchinchi bobida Mirkarim Osimning “Zulmat ichta nur” qissasi tahlilga tortilgan bo`lib, unda Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro obrazlarini yaratishda adib mahorati tadqiq etilgan. Adibning tarixiy shaxslar obrazini yaratishda o`ziga xos uslubi haqida bahs yuritilgan.

Talaba mavzuga oid barcha ma`lumotlari yaxshi o`rgangan, shuningdek, internet materiallaridan ham unumli foydalangan.

Talabaning Bitiruv-malakaviy ishning natijalari asosida bildirilgan umumiyl xulosalar ishonchli va asosli.

Men ushbu Bitiruv-malakaviy ishni barcha talablarga amal qilingan holda bajarilgan va yakunlangan ish deb hisoblayman. Binobarin, ushbu BMI ni ijobiy baholayman.

Zohidjon SODIQOV:  
mudiri, dotsent, filologiya fanlari nomzodi

NamDU ntmis va fransuz tillari kafedrasи

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I-Bob. Mirkarim Osim adabiy merosi.....</b>	<b>6</b>
<b>1. 1. Respublikamiz prezidenti I. Karimov adabiyot haqida.....</b>	<b>6</b>
<b>1.2.Mirkarim Osim hayoti va ijodiy faoliyati haqida.....</b>	<b>14</b>
<b>1.3. «To`maris» qissasida tarixiy haqiqatning badiiy talqini.....</b>	<b>20</b>
<b>II-bob. “O`tror” qissasida tarixiy shaxs va badiiy xarakter masalasi.....</b>	<b>28</b>
<b>2.1. Chingizzon obrazi.....</b>	<b>28</b>
<b>2. 2. Minglioy va boshqa ayollar obrazi.....</b>	<b>33</b>
<b>2.3. Sulton Horazmshoh obrazi boshqa timsollar.....</b>	<b>36</b>
<b>III-Bob. «Zulmat ichra nur» qissasi.....</b>	<b>41</b>
<b>3.1. Qissada tarix va talqin.....</b>	<b>41</b>
<b>3.2. Alisher Navoiy obrazi.....</b>	<b>52</b>
<b>3.3. Husayn Boyqaro obrazi va boshqa obrazlar.....</b>	<b>57</b>
<b>Umumiy xulosalar.....</b>	<b>67</b>
<b>Adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>70</b>